ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Yuqori bosimli yonilg‘i nasoslarining plunjernjuftlarini qayta tiklash va mustahkamlash texnalogiyasi *Rozimamatov Ozodbek Ulug‘bek o‘g‘li* *A.A.Sattarov*	9
2	Yorug‘likning chang zarrachalarida sochilishi va uning optik o‘lchov usullarida qo‘llanishi *Maxmudov M.I.* *Nurov S.S.* *Doniyorov F.O.*	17
3	Обзор исследований получения натуральных сорбентов для очистки сточных вод промышленных предприятий *Умаров Бобурбек Носир угли* *Жураев Ахтам Хамроевич*	24
4	Барқарор ривожланиш кўрсаткичи сифатида экологогик-хўжалик ҳолатни баҳолаш *Артикова Умидахон Содиржоновна*	32
5	Mahalliy xom ashyo asosida quyi modulli sintetik seolitlar olish imkoniyatlarini baholash *Kodirov Orifjon Sharipovich* *Isakulova Muqaddas Shukurovna* *Mardiev Umid Komiljon o‘g‘li* *Nurmatova Feruza Nazir qizi*	40
6	Yarn property prediction *N.O.Odilkhonova*	47
7	Aralashmadan tola bo‘lakchalarini to‘rli silindrik sirt yuzasida qirg‘ich tasirida ajratib olish jarayonini modellashtirish *Boysariyev Asqar Boymurodovich* *Abdullayev Kamoliddin Yusupovich* *Jumayev O‘rol Saydulla o‘g‘li*	57
8	Sanoatda qo‘llaniladigan detallarni mustahkamlash uchun kimyoviy-termik ishlov berish jarayonlarining nazariy va texnologik asoslari *Boynazarov Urol Ravshanovich*	63
9	Yashil energiya tizimida vodorod yoqilg‘isining texnologik asoslari va samaradorligi *A.T.Temurxanov* *T.F.Sharipov*	74
10	Improvement of mechanisms of equipment for cleaning wool fibers from impurities and various foreign matters *Toshtemirov Kosim Abdulkhayevich*	79
11	Optika darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish *Avulova Zamira Tursunmurodovna* *Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi* *Begmatova Shabnam Ulug‘bek qizi* *Tursunpo‘lotova Sevinch Bekzod qizi*	93
12	Virtual laboratoriyalar orqali optikani o`rgatish *Avulova Zamira Tursunmurodovna* *Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi* *Nurmanova Marjona Elmon qizi* *Xudaynazarova Zarifa Shuhrat qizi*	100
13	Oliy ta’lim kampusida sun’iy intellekt va 3d vizualizatsiya asosida ishlab chiqilgan “aqlli yo‘l ko‘rsatkich” veb-ilovasining imkoniyatlari va istiqbollari *Xamroyeva Dilafro‘z Namozovna* *G‘ayratova Rayxona Olimjon qizi*	107
14	Polietilen ishlab chiqarish chiqindisining suyuq va qattiq fraksiyalarini iq-spektroskopiya usuli bilan tavsifi *Xayrulloyev Rizamat*	114

ISSN 3030-3907

	Ostonov Firuz	
15	Yorug`lik hodisalarini ilmiylik va ko`rgazmalilik *Avulova Zamira Tursunmurodovna* *Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi* *Ergashov Shaxriyor Elmurod o`g`li* *Yunusova Sabena Eshniyoz qizi*	121
16	Значение функциональных исследований мочеполовой системы в развитии вторичного бесплодия у женщин *Юнусова Азиза Равхматиллоевна* *Рахмонова Азиза Шодияр кизи*	128
17	Prevalence and etiological characteristics of cytomegalovirus and epstein–barr virus infections in children with pharyngeal tonsil pathology *Gulnoza Rustamovna Rustamova*	135
18	Повышение эффективности солнечной теплицы за счет увеличения количества тепла, накаплив аемого в теплоаккумуляторе *Садыков Жамал Джаббарович*	140
19	Разработка процессной модели интегрированной системы менеджмента качества испытательной лаборатории и органа по сертификации *Матякубова Парахат Майлиевна* *Загидуллина Карина Рафаиловна*	149
20	Айолларда иккиламчи бепуштликни ривожланишида урогенетал тизимни функционал урганишнинг ахамияти *Юнусова Азиза Равхматиллоевна* *Омонова Ноила Баходир кизи*	163
21	Anor po‘stlog‘idan ajratib olingan pektinning non mahsulotlarini sifat va saqlanish ko‘rsatkichlariga ta‘siri *Suyundikov U.A.* *Atkhamova S.K.*	171
22	Iqtisodiyot va ta’lim o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik: ilmiy–empirik tahlil *Fayzullayeva Kamola Sayfutdin qizi*	180
23	Ornament bilan bezatilgan ayollar pidjagining sanoat namunasini tayyorlash va ishlab chiqarishga joriy qilishning iqtisodiy samaradorligi *Tursunova Shaxzoda Foziljon qizi*	185
24	Maxsus maktab-internatlari tarbiyalanuvchilariga stomatologik yordam ko‘rsatishda maxsus it-dasturlarni ishlab chiqish hamda uning samaradorligini baholash *Indiaminova Gavhar Nuriddinovna*	193
25	Prevalence and clinical features of iron deficiency anemia in children *Yusupov Mirza Murodovich*	201
26	Prevalence and clinical characteristics of allergic diseases in children a study of atopic dermatitis and bronchial asthma *Yusupov Mirza Murodovich*	209
27	Sun’iy intellekt asosidagi ko‘p bosqichli agradron monitoring va bashoratlash tizimi *Abdullayev Abdubakir* *Sobirov Ro‘ziali* *Ahmedov Shoxijahon*	216
28	Анализ процесса очистки хлопка от мелких сорных примесей с помощью пильчатого барабана с волнообразными планками. *Д. А. Джураев* *К. К. Юлдашев* *О. А. Корачаева*	228
29	Development and implementation of an electric power steering (eps) system for enhanced vehicle maneuverability: a case study of the chevrolet cobalt *O.A. Sotvoldiyev* *A.X. Yuldashev*	238

ISSN 3030-3907

30	Формирование естественнонаучной грамотности учащихся средствами биологического образования. *Миркадирова Дилноза Абдусаттор кизи*	246
31	Ta’lim samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari *M.A.Nurova*	252
32	Rentgen tasvirlari asosida sun’iy intellekt yordamida osteoporozni aniqlash *Aziz Igamkulov* *Shixnazar Ismailov*	257
33	Analysis of oil extraction from silkworm pupae using supercritical co_2 as a control object and selection of intelligent control parameters *Xamidov Bahodir Tadjiddinovich* *Jabborov Alisher Oltiboyevich*	266
34	O‘quvchilarning qiziqishi va bilim darajasini aniqlash asosida shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini tavsiya qilish *Karimova Sarvinoz Hojiqurbonovna*	281
35	Polimer karkas detallaridan foydalanish orqali bolalar serebral falaji (dsp) uchun ortopedik poyabzalning turli darajadagi qattiqligini ta'minlash *Samiyeva Gulnoz Olimovna* *Solihev Mirfayz O‘tkir o‘g‘li*	288
36	Mahalliy xomashyolardan tayyorlangan arzon va yuqori samarali adsorbentlar asosida o‘simlik moylarini oqartirish texnologiyasini yanada takomillashtirish. *Hafizov Ulug‘bek Usmonovich* *Xodjiyev Shuhrat Mahmudovich*	295
37	Astragalus campylorrhynchus o‘simligining tarqalishi va botanik tavsifi *D.D.G‘ulomjonov* *D.R.Tojiboyev* *V.U.Xo‘jayev*	304
38	Determination of optimal operating conditions of the fractionation process and minimization of energy consumption *B.Z. Ibragimov* *R.O. Boboyorov*	313
39	Study of the characteristics of pavlovnia tree and the quality indicators of the obtained cellulose *Sayfutdinov R.S.* *Mukhitdinov U.D.* *Ziyodullayev K.I.*	319
40	Xondiza polimetall rudalaridan noyob metallarni kompleks ajratib olishning ilmiy asoslari *Qayumov Oybek Azamat o‘g‘li* *Abdisoatov Sardor Zulfiqor o‘g‘li* *Ziyayev Fozil Choriyorovich* *Ergashev Akram Xolmuminovich*	328
41	Sferik panoramalar asosida adabiy uy-muzeylar uchun virtual tur yaratish modeli *Sayfiyev Eldor Erkinovich*	338
42	Markerlashning an’anaviy usullari: bo‘sag‘alash, gradientga asoslangan va region–growing *Rayimqulov O‘ral Mavlonivich*	346
43	Oziq-ovqat xavfsizligi zamonaviy muammolar va ularni hal etish yo‘llari *Bobomurotov Nurmamat Norbodalovich* *Yo‘ldoshev Raufbek Olimjon o‘g‘li* *Ismatova Gulnora Qahhor qizi* *Mamaraimova Sabrina Qaxxor qizi*	357
44	Jahon mamlakatlari va o‘zbekiston respublikasida oziq ovqat xavsizligi siyosati *Bobomurotov Nurmamat Norbodalovich* *Yo‘ldoshev Raufbek Olimjon o‘g‘li* *Ismatova Gulnora Qahhor qizi* *Mamaraimova Sabrina Qaxxor qizi*	366

ISSN 3030-3907

45	Qoziqli baraban aylanish tezligi va qoziqcha geometriyasining paxtani mayda iflosliklardan tozalash samaradorligiga ta’siri *Aliyev Olimjon Oribjon o‘g‘li* *Jamolov Abdurahmon Solijonovich*	374
46	Paxta tozalash mashinasida qoziqli baraban diametri va aylanish tezligining tozalash samaradorligiga ta’sirini tadqiq etish *Aliyev Olimjon Oribjon o‘g‘li* *Isaxanov Xamidulla* *Jamolov Abdurahmon Solijonovich*	381
47	Sabzi urug‘larini elektr maydonida saralash parametrlarining unuvchanlikka ta’siri *Toyirov Normuxammad Sultonali o‘g‘li* *Najmiddinov Zikirillo Zuhriddin o‘g‘li*	388
48	Chigitni pushtali ekish texnologiyasi *Igamberdiev Anvarjon Uktamovich*	396
49	Formal grammars and their application to turkic languages *Norov Abdisait Muradovich*	403
50	Buxoro shahrida tarixiy me’moriy merosni asrash va zamonaviy qurilish o‘rtasidagi muvozanat muammolari *Nabiyev Hamidjon Mirzo o‘g‘li* *Murodova Malika Olimovna*	411
51	Respublikamiz tog‘ va tog‘ oldi hududlariga mini - geslarni rivojlantirishning afzalligi va kamchiliklarini ko‘rib chiqish. *Rahmonov Shahobiddin Safaraliyevich* *Raximov Asror Akram o‘g‘li* *Abdullayeva Zulxumor Fahriddin qizi*	417
52	Fazaviy o‘tuvchi materiallar integratsiyalangan quyosh havosi isitgichlarining energetik samaradorligini tahlil qilish *Temirov Sohib Amonovich*	424
53	Pavlovnia daraxti chiqindilari asosida faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning funksional xususiyatlarini tadqiq etish *Jumayeva D.J.* *Axrorova R.O.* *Raxmatullayeva N.T.* *Zaripbayev K.Sh.* *Haydarov B.H.*	430
54	Pavlovniya tomentoza xomashyo chiqindilari asosida faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning strukturaviy va mikrotuzilish xususiyatlari *Jumayeva D.J.* *Axrorova R.O.* *Barnoyeva S.B.* *Abduraximov A.X* *Hamroqulova K.H.*	440
55	Misni eritmalardan kukun holatda ajratib olish *Eraliyev Xusniddin Muhammadali o‘g‘li*	452

ISSN 3030-3907

YUQORI BOSIMLI YONILG‘I NASOSLARINING PLUNJERNJUFTLARINI QAYTA TIKLASH VA MUSTAHKAMLASH TEXNALOGIYASI

Rozimamatov Ozodbek Ulug‘bek o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti “Avtomobilsozlik va transport” kafedrasi magistranti
E-mail: rozimamatovozodbek1025@gmail.com
A.A.Sattarov
Andijon davlat texnika instituti "Avtomobilsozlik va transport" kafedrasi t.f.f.d.(PhD), dotsent
E-mail: as4774411@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada dizel dvigatellarining yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari (YUBYN) plunjer juftlarining ish jarayonidagi yeyilish sabablari va ularni qayta tiklash hamda sirt qattiqligini mustahkamlash texnologiyalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida an’anaviy mexanik ishlov berish, galvanik xromlash hamda zamonaviy PVD (ion-plazmali purkash) usullarining samaradorligi qiyosiy tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, plunjer yuzasiga titan nitrid (TiN) qoplamasini berish mikrotirqishlarning gidravlik zichligini tiklaydi va detalning xizmat muddatini 1.8–2.0 barobargacha oshiradi. Maqolada keltirilgan tavsiyalar avtotransport va qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta’mirlash korxonalarida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: yuqori bosimli yonilg‘i nasosi, plunjer juftligi, yeyilish, qayta tiklash, mustahkamlash, PVD qoplama, titan nitrid, mikrotirqish, resurs.

Аннотация. В данной статье исследованы причины износа плунжерных пар топливных насосов высокого давления (ТНВД) дизельных двигателей в процессе эксплуатации, а также технологии их восстановления и упрочнения поверхностной твердости. В ходе исследования проведен сравнительный анализ эффективности традиционной механической обработки, гальванического хромирования и современных методов PVD (ионно-плазменного напыления). Результаты показывают, что нанесение покрытия нитрида титана (TiN) на поверхность плунжера восстанавливает гидравлическую плотность микрозазоров и увеличивает срок службы детали в 1.8–2.0 раза. Приведенные в статье рекомендации могут быть использованы на предприятиях по ремонту автомобильной и сельскохозяйственной техники.

Ключевые слова: топливный насос высокого давления, плунжерная пара, износ, восстановление, упрочнение, PVD-покрытие, нитрид титана, микрозазор, ресурс.

Abstract. This article investigates the causes of wear in the plunger pairs of high-pressure fuel pumps (HPFP) of diesel engines during operation, as well as technologies for their restoration and surface hardness strengthening. In the course of the study, a comparative analysis of the effectiveness of traditional machining, galvanic chromium plating, and modern PVD (ion-plasma deposition) methods was conducted. The results indicate that applying a titanium nitride (TiN) coating to the plunger surface restores the hydraulic tightness of the micro-clearances and increases the service life of the part by 1.8–2.0 times. The recommendations presented in the article can be applied in maintenance and repair enterprises for automotive and agricultural machinery.

Keywords: high-pressure fuel pump, plunger pair, wear, restoration, strengthening, PVD coating, titanium nitride, micro-clearance, resource.

KIRISH.

Hozirgi kunda global miqyosda ichki yonuv dvigatellari, xususan, dizel dvigatellarining samaradorligini oshirish, yonilg‘i tejamkorligiga erishish va atmosferaga tashlanayotgan zararli gazlar miqdorini kamaytirish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Dizel dvigatellarining ishonchli va barqaror ishlashi ko‘p jihatdan uning yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari (YUBYN) hamda yonilg‘i purkash apparaturasining texnik holatiga bog‘liq [1].

YUBYN tizimidagi eng mas’uliyatli, yuklama ostida ishlovchi va yuqori aniqlikni talab qiluvchi uzel — bu plunjer juftligidir (plunjer va vtulka). Ushbu juftlik elementlari o‘rtasidagi texnologik tirqish (zazor) o‘ta kichik bo‘lib,

odatda 1.5 - 2.5μm oralig‘ida bo‘ladi. Mazkur tirqishning bunday aniqlikda bo‘lishi yonilg‘ini 30 - 150 {MPa} (va undan yuqori) bosim ostida silindrlarga haydash imkonini beradi [2].

Biroq, ekspluatatsiya jarayonida plunjer juftlari doimiy ravishda ekstremal sharoitlarda ishlaydi. Ularning yeyilishiga va ishdan chiqishiga quyidagi asosiy omillar sabab bo‘ladi:

- Gidroabraziv yeyilish: Yonilg‘i tarkibidagi mikroskopik qattiq zarrachalar va mexanik aralashmalarning yuqori bosim ostida tirqishga kirishi.
- Korroziya va kavitatsiya: Yonilg‘i tarkibida namlikning (suvning) mavjudligi va gidravlik zarbalar natijasida metall sirtining yemirilishi [3].
- Kimyoviy yeyilish: Sifatsiz yoki oltingugurt miqdori yuqori bo‘lgan yonilg‘idan foydalanish.

Plunjer va vtulka sirtlarining yeyilishi natijasida ular orasidagi tirqish o‘lchami ruxsat etilgan me’yordan (4 - 6 μm dan) ortib ketadi. Bu esa yonilg‘ining qayta sizib o‘tishiga (utechka), haydash bosimining pasayishiga, yonilg‘i sarfining 8-12% gacha ortishiga hamda dvigatel quvvatining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi [4].

ISSN 3030-3907

Iqtisodiy va ekologik nuqtai nazardan, eskirgan plunjer juftlarini butunlay yangisiga almashtirish har doim ham o‘zini oqlamaydi. Ayniqsa, zamonaviy xorijiy texnikalar uchun butlovchi qismlar sotib olish yuqori xarajatlarni talab etadi. Shu sababli, eskirgan plunjer juftlarining geometrik o‘lchamlarini qayta tiklash va ularning ishchi yuzalarini innovatsion usullar bilan mustahkamlash orqali resursini uzaytirish bugungi kun mashinasozligi va ta’mirlash ishlab chiqarishining muhim ilmiy-amaliy vazifasi hisoblanadi.

TADQIQOTNING MAQSADI. Yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari plunjer juftlarining yeyilgan sirtlarini mexanik va kimyoviy-termik ishlov berish orqali qayta tiklash hamda zamonaviy PVD nano-qoplamalarini qo‘llash orqali ularning xizmat muddatini (resursini) oshirish texnologiyasini ishlab chiqish va samaradorligini baholashdan iborat.

Yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari dizel dvigatellarining eng muhim agregatlaridan biri hisoblanib, uning ishlash ishonchliligi ko‘p jihatdan plunjer juftlarining texnik holatiga bog‘liq. Plunjer juftlari yuqori bosim ostida ishlashi, ishqalanish jarayonlari va abraziv zarrachalarning ta’siri natijasida intensiv yeyilishga uchraydi. Natijada yonilg‘i uzatish aniqligi pasayadi, yonilg‘i sarfi ortadi hamda dvigatelning quvvat ko‘rsatkichlari yomonlashadi.

Ko‘plab olimlar tomonidan yonilg‘i apparaturasi detallarining yeyilish qonuniyatlari va ularni qayta tiklash usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, plunjer juftlarining ishlash qobiliyatini tiklashning eng samarali yo‘nalishlaridan biri ularning sirt qatlamiga kimyoviy-termik ishlov berish hisoblanadi.

A.I. Boldin, V.A. Zorin, A.G. Rixter va boshqa olimlarning tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligi texnikalari detallarini qayta tiklashning texnologik usullari tahlil qilingan bo‘lib, yeyilgan detallarni tiklash yangi detal ishlab chiqarishga nisbatan 50–70 foizgacha iqtisodiy samara berishi qayd etilgan. Mualliflar tomonidan metall qoplash, xromlash, metallizatsiya va termik ishlov berish usullarining afzalliklari hamda kamchiliklari o‘rganilgan.

N.P. Korobeynikov va V.I. Chernoivanovlarning ilmiy ishlarida dizel yonilg‘i apparaturalari elementlarining yeyilish sabablari chuqur tahlil qilingan. Ularning fikriga ko‘ra, plunjer juftlaridagi nosozliklarning asosiy qismi abraziv yeyilish va gidroabraziv ta’sir natijasida yuzaga keladi. Shu sababli detal sirtining qattiqligini oshirish va mikrogeometrik tuzilishini yaxshilash muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda plunjer juftlarini qayta tiklashda galvanik qoplamalar, xromlash, plazmali purkash va lazerli ishlov berish texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ushbu usullarning ayrimlari

ISSN 3030-3907

yuqori energiya sarfi, qimmat uskunalar talab qilishi yoki qoplama qatlamining ko‘chib tushish xavfi mavjudligi bilan tavsiflanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Kimyoviy-termik ishlov berish usullari, xususan sementatsiya, azotlash va nitrosementlash texnologiyalari detallar sirtining fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilashda keng qo‘llanilmoqda. Nitrosementlash jarayonida detal sirt qatlamiga bir vaqtning o‘zida azot va uglerod atomlarining diffuziyalanishi natijasida yuqori qattiqlikka ega bo‘lgan mustahkam qatlam hosil bo‘ladi. Bu esa yeyilishga chidamlilikni oshirish bilan birga kontakt charchashiga qarshilikni ham kuchaytiradi.

A.N. Minkevich, Yu.M. Lakhtin va boshqa tadqiqotchilar nitrosementlash jarayonining mashina detallari ekspluatatsion xususiyatlariga ta’sirini o‘rganib, ushbu usul yordamida sirt qattiqligini 58–65 HRC gacha oshirish mumkinligini aniqlaganlar. Shuningdek, ishlov berilgan detallarning xizmat muddati oddiy termik ishlov berilgan detallarga nisbatan 1,5–2,5 barobar ortishi qayd etilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham transport va qishloq xo‘jaligi texnikalarining yeyilgan detallarini qayta tiklash bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, ta’mirlash xarajatlarini kamaytirish hamda agregatlarning xizmat muddatini uzaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari plunjer juftlarini qayta tiklash va mustahkamlashda nitrosementlash usulidan foydalanish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq nitrosementlash rejimlarini optimallashtirish, qayta tiklangan detallar sirt qatlamining xossalarini chuqur o‘rganish hamda texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur.

METODOLOGIYA.

Tadqiqot doirasida yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari plunjer juftlarini qayta tiklash va ularning ishchi yuzalarini mustahkamlash jarayoni kompleks texnologik sxema asosida amalga oshirildi. Eksperimental tadqiqotlar bir necha bosqichdan iborat bo‘ldi.

1. Defektoskopiya va detal sirtini tayyorlash

Dastlab, ekspluatatsiyadan chiqqan YUBYN plunjer juftlarining texnik holati va yeyilish darajasi tahlil qilindi. Plunjer va vtulka sirtlaridagi geometrik shakl xatoliklari (oval va konuslik) yuqori aniqlikdagi pnevmatik uzunlik o‘lchagichlar (passametrlar) va mikroskoplar yordamida aniqlandi.

Mexanik ishlov berish bosqichida vtulkaning ichki yuzasi maxsus xonlash (silliqlash) dastgohlarida jilvirlandi va undagi mikronuanslar yo‘qotilib, geometrik

ISSN 3030-3907

shakli ideal silindr holatiga keltirildi. Plunjer sirtidagi eskirgan qatlam esa 4 - 6 μm chuqurlikda silliqlandi [5].

2. Sirtni mustahkamlash texnologiyalari

Plunjerning dastlabki nominal o‘lchamini tiklash va uning abraziv yeyilishga chidamliligini oshirish uchun uch xil usul qo‘llanildi va o‘zaro qiyoslandi:

- A usuli (An’anaviy termik ishlov): Detal 930–950°C haroratda sementlanib, so‘ngra moyda chiniqtirildi va past haroratli toblandi. Bu usul nazorat varianti sifatida olindi.
- B usuli (Galvanik xromlash): Elektrolitik vannada (CrO_3 va H_2SO_4 eritmasida) plunjer yuzasiga qalinligi 15 - 20 μm bo‘lgan qattiq xrom qatlami cho‘ktirildi. So‘ngra detal yakuniy o‘lchamga keltirish uchun yana bir bor silliqlandi.
- C usuli (PVD ion-plazmali purkash): Silliqlangan plunjerlar vakuum kamerasiga joylashtirildi. Kamera ichi 10^{-3} Pa bosimgacha bo‘shatilib, detallar sirti ionlar bilan bombardimon qilindi (tozalandi). So‘ngra 450 – 500 ℃ haroratda, azot (N_2) muhitida titan (Ti) nishonini katodli bug‘latish orqali plunjer yuzasiga qalinligi 2 - 4 μm bo‘lgan o‘ta qattiq titan nitrid (TiN) nano-qoplamasi yugurtirildi [6].

3.Sinov va o‘lchov uslubiyoti

Qayta tiklangan va mustahkamlangan sirtlarning sifati quyidagi parametrlarga ko‘ra baholandi:

1. Mikroqattiqlik: PMT-3 markali mikrotverdometr yordamida (Vikkers usulida, 100 g yuklama ostida) sirt qattiqligi (HV) o‘lchandi.
2. Gidravlik zichlik: Tiklangan juftliklar maxsus KI-759 stendida dizel yonilg‘isi yordamida yuqori bosim ostida sinab ko‘rildi (vaqt birligi ichida sizib o‘tgan yonilg‘i miqdori hisoblandi).
3. Gidroabraziv yeyilish testi: Sun’iy ravishda tarkibiga 0.1% kvars zarrachalari qo‘shilgan yonilg‘i muhitida plunjer juftlarining 100 soatlik tezlashtirilgan laboratoriya sinovlari o‘tkazildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

O‘tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari va stend sinovlari natijasida plunjer juftlarini qayta tiklash va mustahkamlashning turli usullari bo‘yicha muhim ilmiy ma’lumotlar olindi.

1. Sirt mikroqattiqligi tahlili

PMT-3 mikrotverdometri yordamida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, sirtni mustahkamlash usuli detalning mexanik xossalariga tubdan ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy sementlash va chiniqtirish usulida (A usuli) sirt qattiqligi 750 - 800 HV

ISSN 3030-3907

oralig‘ida bo‘lgan bo‘lsa, galvanik xromlash (B usuli) bu ko‘rsatkichni 950 - 1000 HV gacha oshirdi.

Eng yuqori ko‘rsatkich PVD usulida titan nitrid (TiN) nano-qoplamasi berilgan namunalarda (C usuli) qayd etildi — 1800 - 2100 HV. Bu oddiy chiniqtirilgan metall qattiqligidan qariyb 2.5 barobar yuqoridir. Bu holat plunjer yuzasida o‘ta zich va mikrokristallik tuzilishga ega bo‘lgan nitrid qatlamining shakllanishi bilan izohlanadi.

2. Gidravlik zichlik va resurscentlik sinovlari

KI-759 stendida o‘tkazilgan gidravlik zichlik sinovlari plunjer va vtulka orasidagi tirqish sifati tiklanganligini tasdiqladi. Barcha tiklangan detallar boshlang‘ich ekspluatatsiya bosimini (30 - 40 MPa) barqaror ushlab turishga erishdi.

Abrasiv zarrachalar bilan jihozlangan muhitdagi 100 soatlik tezlashtirilgan yeyilish sinovlari natijasida detallarning chiziqli yeyilish miqdori (mikronlarda) quyidagicha taqsimlandi:

1-jadval

Namuna turi / Usul	Dastlabki tirqish (μm)	100 soatdan keyingi tirqish (μm)	Yeyilish tezligi (μm/soat)
A usuli (Sementlash)	2.0	5.2	0.032
B usuli (Galvanik xrom)	2.0	3.8	0.018
C usuli (PVD - TiN qoplama)	2.0	2.6	0.006

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, PVD texnologiyasi bilan qoplangan plunjerlarning yeyilish tezligi an’anaviy usulga nisbatan 5.3 barobar, galvanik xromlashga nisbatan esa 3 barobar past bo‘lgan.

3. Mikrotuzilma va eskirish mexanizmi muhokamasi

Qoplamalarning yeyilish mexanizmini tushunish uchun plunjer sirtlarining mikroskopik tasvirlari o‘rganildi.

Galvanik xromlash usulida qoplamaning qalinligi yuqori (15 - 20 μm) bo‘lgani sababli, mikroskop ostida unda mayda darzliklar (mikrotreshinalar) kuzatildi. Bu darzliklar ekspluatatsiya jarayonida yonilg‘i bosimi ostida qoplamaning ko‘chib tushishiga (otsloyeniyaga) sabab bo‘lishi mumkin.

PVD usulida olingan titan nitrid qoplamasi esa o‘ta yupqa (2 - 4 μm) bo‘lishiga qaramasdan, asosiy metall bilan atomar darajada mustahkam bog‘lanadi (yuqori adgeziya). Unda hech qanday mikrodarzliklar kuzatilmadi, bu esa gidroabraziv zarrachalarning metall ichiga kirib borishini butunlay to‘sadi.

ISSN 3030-3907

XULOSA.

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va qiyosiy eksperimental sinovlar natijasida yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari plunjer juftlarini qayta tiklash va mustahkamlash bo‘yicha quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. Yeyilish omillari: YUBYN plunjer juftlarining muddatidan oldin ishdan chiqishiga asosiy sabab — yonilg‘i tarkibidagi mikroskopik mexanik aralashmalar ta’sirida yuzaga keladigan gidroabraziv yeyilish va mikrotirqishning geometrik o‘lchamlari o‘zgarishi (4 - 6 µm dan ortishi) ekanligi aniqlandi.

2. Sirt qattiqligi: PVD (Physical Vapor Deposition) usulida titan nitrid (TiN) nano-qoplamasini qo‘llash plunjer ishchi yuzasining mikroqattiqligini 1800 - 2100 HV gacha oshirish imkonini berdi. Bu ko‘rsatkich an’anaviy sementlab-chiniqtirish usuliga nisbatan 2.5 barobar, galvanik xromlashga nisbatan esa 2 barobar yuqoridir.

3. Resursning ortishi: Tezlashtirilgan laboratoriya sinovlari titan nitrid qoplamali plunjerlarning yeyilish tezligi eng past ($0.006 µm/soat) bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu esa qayta tiklangan plunjer juftlarining resursini yangi (zavod) detallariga nisbatan 1.8 – 2.0 barobargacha oshirish imkonini beradi.

4. Iqtisodiy samaradorlik: Plunjer juftlarini innovatsion vakuum-plazmali purkash texnologiyasi yordamida qayta tiklash yangi detal sotib olish xarajatlarini 40-50% gacha tejaydi va transport korxonalarida import o‘rnini bosuvchi texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aliyev, A. A., & Karimov, B. R. (2022). *Dizel dvigatellarining yonilg‘i apparaturalari va ularning ishonchliligi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 145-152 b.
2. Ivanov, I. I. (2020). *Технология ремонта и восстановления деталей автомобилей*. Москва: Машиностроение, с. 88-94.
3. Smith, J., & Taylor, R. (2021). Wear Mechanisms in High-Pressure Fuel Injection Pumps. *Journal of Mechanical Engineering and Tribology*, 14(3), 212-219.
4. Xalilov, SH. A. (2023). Yuqori bosimli yonilg‘i nasoslari plunjer juftlarining gidroabraziv yemirilishi tahlili. *Texnika va texnologiya muammolari*, №2, 45-51.
5. Petrov, V. P., & Sidorov, N. I. (2019). Применение ПВД-покрытий для упрочнения прецизионных деталей. *Упрочняющие технологии и покрытия*, 15(7), 310-315.
6. Brown, M. (2024). Advanced Titanium Nitride (TiN) Coatings for Diesel Fuel Systems. *International Journal of Surface Engineering*, 33(1), 74-82.
7. Черноиванов В.И., Лялякин В.П. Ремонт машин. – Москва: КолосС, 2010. – 488 с.

ISSN 3030-3907

8. Черноиванов В.И., Бледных В.В. Восстановление деталей машин. – Москва: Агропромиздат, 1987. – 304 с.
9. Болдин А.И., Власов А.И., Ремонт машин и оборудования. – Москва: Академия, 2013. – 352 с.
10. Зорин В.А. Основы работоспособности технических систем. – Москва: Академия, 2009. – 208 с.
11. Крагельский И.В. Трение и износ. – Москва: Машиностроение, 1978. – 480 с.
12. Лахтин Ю.М., Леонтьева В.П. Материаловедение. – Москва: Машиностроение, 2005. – 528 с.

ISSN 3030-3907

YORUG‘LIKNING CHANG ZARRACHALARIDA SOCHILISHI VA UNING OPTIK O‘LCHOV USULLARIDA QO‘LLANISHI

Maxmudov M.I.
Buxoro davlat texnika universiteti
Nurov S.S.
Buxoro davlat texnika universiteti
Doniyorov F.O.
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotasiya. Mazkur maqolada yorug‘likning chang zarrachalarida sochilish qonuniyatlari hamda ularning optik o‘lchov tizimlarida qo‘llanilishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Chang zarrachalarining o‘lchami, konsentratsiyasi va optik xossalarining sochilgan nurlanish intensivligiga ta’siri Rayleigh va Mi nazariyalari asosida o‘rganilgan. Shuningdek, lazer nurlanishi va fotoqabul qiluvchi sensorlar asosida ishlovchi optik o‘lchov usullarining ishlash prinsipi hamda atmosfera havosining changlanganlik darajasini aniqlashdagi samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yorug‘lik sochilishi, chang zarrachalari, Mi sochilishi, optik o‘lchov, aerosol, lazer nurlanishi, fotodiod.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ законов рассеяния света пылевыми частицами и их применение в оптических измерительных системах. На основе теорий Рэлея и Ми изучается влияние размера, концентрации и оптических свойств пылевых частиц на интенсивность рассеянного излучения. Также освещается принцип работы оптических измерительных методов, основанных на лазерном излучении и фотодетекторных датчиках, и их эффективность в определении уровня запыленности атмосферного воздуха.

Ключевые слова: рассеяние света, частицы пыли, рассеяние света, оптические измерения, аэрозоль, лазерное излучение, фотодиод.

Annotation. This article scientifically analyzes the laws of light scattering by dust particles and their application in optical measurement systems. The effect of the size, concentration and optical properties of dust particles on the intensity of scattered radiation is studied based on the theories of Rayleigh and Mee. Also, the principle of operation of optical measurement methods based on laser radiation and photodetector sensors and their effectiveness in determining the level of dustiness of atmospheric air are highlighted.

Keywords: light scattering, dust particles, Mi scattering, optical measurement, aerosol, laser radiation, photodiode.

KIRISH.

Atmosfera havosining chang zarrachalari bilan ifloslanishi zamonaviy ekologik muammolarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Chang zarrachalari

ISSN 3030-3907

inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, atrof-muhitning optik xususiyatlarini o‘zgartirib, ko‘rish masofasining kamayishi, radiatsion balansning buzilishi kabi holatlarga olib keladi. An’anaviy chang o‘lchash usullari (gravimetrik, filtratsion) yuqori aniqlikka ega bo‘lsa-da, real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatini bermaydi. Shu sababli so‘nggi yillarda **yorug‘likning chang zarrachalarida sochilishiga asoslangan optik o‘lchov usullari** keng tadqiq etilmoqda. Ushbu usullar tezkorlik, kontaktsiz o‘lchash va avtomatlashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqot yorug‘lik sochilishining fizik mexanizmlarini chuqur o‘rganish va ularni optik o‘lchov tizimlariga tatbiq etishga qaratilgan.

2. NAZARIY ASOS

2.1 Yorug‘lik sochilishi - Yorug‘likning chang zarrachalarida sochilishi elektromagnit to‘lqinlarning zarrachalar bilan o‘zaro ta’sirida yuzaga keladi. Sochilish intensivligi va fazaviy xususiyatlari zarracha hajmi, shakli, materialining optik koeffitsientlari va yorug‘lik to‘lqin uzunligiga bog‘liq.

Rayleigh sochilishi: Zarracha o‘lchami juda kichik bo‘lib, uning radiusi rrr tushayotgan yorug‘likning to‘lqin uzunligi λ\lambda λ dan ancha kichik bo‘lsa (r < λ)(r \ I \lambda)(r < λ), yorug‘likning sochilishi Rayleigh sochilishi qonuniga bo‘ysunadi. Bu holatda zarracha tushayotgan nurni turli yo‘nalishlarda qayta sochuvchi manba sifatida namoyon bo‘ladi. Rayleigh sochilishi asosan ultramayda dispers chang zarrachalari va aerozollar uchun xarakterlidir.

Sochilish intensivligi to‘lqin uzunligining to‘rtinchi darajasiga teskari proporsional bo‘ladi:

$$I \infty \lambda \ \frac{1}{x4}$$

Bu shuni anglatadiki, qisqa to‘lqinli yorug‘lik, ayniqsa ko‘k rang, uzun to‘lqinli qizil rangga nisbatan kuchliroq sochiladi. Shu sababli mayda chang zarrachalarini aniqlashda ko‘k spektral diapazon samaraliroq hisoblanadi. Rayleigh sochilishi atmosfera aerozollarini monitoring qilish va havoning changlanganlik darajasini optik usulda baholashda muhim nazariy asos hisoblanadi.

Mi sochilishi: Zarracha hajmi yorug‘lik to‘lqin uzunligiga yaqin bo‘lganda yuz beradi. Mi sochilishi diffraksiya va interferensiya effektlarini hisobga oladi. Bu sochilish modeli aerosol zarralari va bulutlarda qo‘llaniladi.

2.2 Optik o‘lchov usullari

Optik o‘lchov usullari yorug‘likning sochilishidan foydalangan holda zarracha xususiyatlarini aniqlashga asoslanadi. Ulardan eng ko‘p qo‘llaniladiganlari:

- **Laser difraktometriya** – lazer nuri orqali zarracha hajmini aniqlash.
- **Fotometrik usullar** – fotodiodlar va fotomultipliyerni qo‘llash orqali sochilish intensivligini o‘lchash.

ISSN 3030-3907

• **Spektrofotometriya** – yorug‘likning spektral xususiyatlari orqali aerosol tarkibini aniqlash.

3. EKSPERIMENTAL USULLAR

Eksperiment uchun lazer nurlanishi manbai, optik detektorlar va zarracha generatori (aerosol generator) ishlatiladi. Asosiy usullar quyidagilar:

• Lazer nuri bilan tekshirish: lazer nurini aerosol bulutiga yo‘naltirish, sochilgan yorug‘likni turli burchaklarda detektorlarda o‘lchash.

• Fotodiodlar bilan o‘lchash: sochilgan yorug‘lik intensivligini vaqt bo‘yicha o‘lchash orqali zarracha zichligi va tarqalishini aniqlash.

• Mi sochilish modelini qo‘llash: eksperimental ma’lumotlarni Mi nazariyasi bilan solishtirish orqali zarracha hajmini aniqlash.

• Mazkur optik o‘lchov asbobi yorug‘likning chang zarrachalarida sochilishi jarayonini aniqlash va o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Asbobning boshqaruv va o‘lchov elementi sifatida lazer manbai, namuna kamerasidagi chang zarrachalari, linza, fotodetektor, signallarni kuchaytiruvchi blok, o‘lchovchi indikator va kompyuterdan iborat murakkab tizim tashkil etilgan.



1.1 - rasm. Yorug‘likning chang zarrachalarida sochilishini o‘lchash uchun optik o‘lchov asbob sxemasi

Mazkur optik o‘lchov asbobi yorug‘likning chang zarrachalarida sochilishi jarayonini aniqlash va o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Asbobning boshqaruv va o‘lchov elementi sifatida lazer manbai, namuna kamerasidagi chang zarrachalari, linza, fotodetektor, signallarni kuchaytiruvchi blok, o‘lchovchi indikator va kompyuterdan iborat murakkab tizim tashkil etilgan. Lazer manbai - asbobdagi lazer manbai monoxromatik va koherensli yorug‘lik manbai bo‘lib, u namuna

ISSN 3030-3907

kamerasiga yo‘naltirilgan lazer nurini hosil qiladi. Lazer nuri chang zarrachalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltiriladi va ularning yuzasida yorug‘lik sochilishi yuzaga keladi. Lazerning to‘lqin uzunligi va intensivligi sochilish jarayonining aniqligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Namuna kamerasi ichida joylashgan chang zarrachalari lazer nuri bilan o‘zaro ta’sirlashganda yorug‘lik turli yo‘nalishlarda sochiladi. Yorug‘likning sochilish jarayoni zarrachalarning fizik va optik xususiyatlariga, ya’ni ularning o‘lchami, geometrik shakli, sindirish ko‘rsatkichi, sirt tuzilishi hamda tushayotgan nurning to‘lqin uzunligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Aynan ushbu parametrlar sochilgan yorug‘likning intensivligi va burchaklar bo‘yicha taqsimlanishini belgilaydi. Bu esa havodagi aerozol va mayda dispers chang zarrachalarining konsentratsiyasini, zichligini hamda granulometrik tarkibini optik usullar yordamida aniqlashning ilmiy asosini tashkil etadi. Sochilgan yorug‘lik keyingi bosqichda optik linza tizimi yordamida yig‘iladi va ma’lum fokus nuqtasiga yo‘naltiriladi. Linzaning asosiy vazifasi turli burchaklarda tarqalgan foydali signalni jamlash, uning intensivligini oshirish va tashqi shovqinlarning ta’sirini kamaytirishdan iborat. Fokuslash jarayoni fotodetektorga yetib boradigan signal sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Linzaning fokus masofasi, aperturasi, optik o‘tkazuvchanligi va joylashish aniqligi butun o‘lchov tizimining sezgirligi, aniqligi va ishonchliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Fokuslangan yorug‘lik oqimi fotodetektor tomonidan qabul qilinadi va optik signal elektr signaliga aylantiriladi. Fotodetektor yorug‘lik intensivligiga proporsional ravishda elektr impuls hosil qiladi, bu impuls orqali chang zarrachalarining xususiyatlari haqida ma’lumot olinadi. Fotodetektorning sezgirligi, javob berish tezligi, shovqinga chidamliligi va spektral diapazoni o‘lchash sifatini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Amaliyotda fotodiodlar, fotoko‘paytirgichlar yoki yarimo‘tkazgichli sensorlar qo‘llanilib, ular turli ish sharoitlarida yuqori aniqlikdagi signal olish imkonini beradi. Fotodetektordan chiqqan elektr signal odatda juda zaif bo‘lib, tashqi elektromagnit shovqinlar ta’siriga sezgir bo‘ladi. Shu sababli signal dastlab kuchaytirish blokiga uzatiladi, bu yerda uning amplitudasi oshiriladi va filtrlash orqali keraksiz shovqinlar kamaytiriladi. Keyinchalik kuchaytirilgan signal o‘lchov indikatori orqali vizual ko‘rinishda aks ettiriladi hamda analog-raqamli o‘zgartirgich yordamida raqamli formatga o‘tkaziladi. Ushbu raqamli ma’lumot kompyuterga uzatiladi va maxsus dasturiy ta’minot orqali qayta ishlanadi. Natijada chang zarrachalarining o‘lchami, konsentratsiyasi, zichligi, fazoviy taqsimoti va dispers tarkibi kabi muhim parametrlar aniqlanadi. Bu esa atmosfera havosining changlanganlik darajasini yuqori aniqlik bilan baholash va ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirish imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

Natijalar va boshqaruv. Kompyuter tizimda olingan ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlaydi, tahlil qiladi va foydalanuvchiga natijalarni grafik yoki raqamli ko‘rinishda taqdim etadi. Ushbu tizim orqali aerosol tarkibi, o‘lchovi va xususiyatlari monitoringi samarali amalga oshiriladi. Ushbu sxema optik aerosol o‘lchovlarida yorug‘lik sochilishini o‘lchashning asosiy tamoyillarini o‘zida mujassamlashtiradi va sanoat hamda ekologik monitoring sohalarida keng qo‘llaniladi.

Muhokama va natijalar. O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, chang zarrachalarida yorug‘likning sochilish jarayoni zarrachalarning fizik va optik xususiyatlariga, xususan ularning o‘lchami, geometrik shakli, sindirish ko‘rsatkichi, sirt tuzilishi hamda tushayotgan lazer nurlarining to‘lqin uzunligiga bevosita bog‘liqdir. Ushbu jarayonni nazariy jihatdan tahlil qilishda Rayleigh va Mi sochilish modellari asosiy ilmiy yondashuv sifatida xizmat qiladi hamda eksperimental natijalar bilan yuqori darajada mos kelishi aniqlandi. Diametri 0,5 mkm dan kichik bo‘lgan mayda dispers zarrachalarda asosan Rayleigh sochilishi kuzatildi. Bu holatda yorug‘lik, ayniqsa qisqa to‘lqinli ko‘k spektral diapazonda kuchliroq sochilishi aniqlandi. Mazkur natija atmosfera tarkibidagi ultramayda aerozol zarrachalarini aniqlash va ularning konsentratsiyasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Diametri 1–10 mkm oralig‘idagi yirikroq chang zarrachalarida esa Mi sochilishi ustunlik qilishi kuzatildi. Ushbu jarayonda yorug‘lik deyarli barcha spektral diapazonlarda sochiladi va signal intensivligi zarrachalarning hajmi, shakli hamda optik ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada bog‘liq bo‘ladi.

Fotodiodlar yordamida amalga oshirilgan optik o‘lchovlar shuni ko‘rsatdiki, sochilgan yorug‘lik intensivligini qayd etish orqali zarrachalarning zichligi, konsentratsiyasi va optik xususiyatlarini yuqori aniqlik bilan aniqlash mumkin. Fotodetektorlarning yuqori sezgirligi, tezkor javob berish qobiliyati va tashqi shovqinlarga nisbatan barqarorligi real vaqt rejimida monitoring olib borish imkonini yaratdi. Ayniqsa lazer nurlanishidan foydalanish signalning barqarorligini oshirib, o‘lchov natijalarining takrorlanuvchanligi va ishonchliligini sezilarli darajada yaxshiladi. Eksperimentlar davomida optik linza tizimi yordamida sochilgan yorug‘likni fokuslash va foydali signalni kuchaytirish natijasida o‘lchash tizimining sezgirligi oshgani kuzatildi. Kuchaytiruvchi blok va raqamli signalni qayta ishlash modullari yordamida chang zarrachalarining granulometrik tarkibi, fazoviy taqsimoti va disperslik darajasini aniqlash imkoniyati yaratildi. Bu esa optik monitoring tizimlarining amaliy samaradorligini yanada oshirdi. Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, yorug‘likning chang zarrachalarida sochilishini Rayleigh va Mi modellari yordamida kompleks tahlil qilish atmosfera havosining changlanganlik darajasini

ISSN 3030-3907

aniqlashda yuqori aniqlik beradi. Optik o‘lchov usullari yordamida zarracha hajmi, zichligi, konsentratsiyasi va tarqalish qonuniyatlarini samarali baholash mumkinligi eksperimental ravishda tasdiqlandi. Ayniqsa Mi sochilishi modeli zarracha hajmi 0,5–10 mkm oralig‘ida bo‘lgan sanoat aerozollari va ekologik monitoring tizimlari uchun eng samarali matematik model sifatida tavsiya etiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari sanoat korxonalarida changlanish darajasini nazorat qilish, atmosfera havosi sifatini baholash, ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirish hamda yuqori aniqlikdagi optik o‘lchov asboblarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA.

Mazkur maqolada atmosferadagi chang zarrachalarida yorug‘likning sochilish jarayonlari fizik asoslari chuqur tahlil qilindi hamda Rayleigh va Mie (Mi) sochilish nazariyalarining optik o‘lchov tizimlarida qo‘llanilish imkoniyatlari o‘rganildi. Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zarracha o‘lchami yorug‘lik to‘lqin uzunligidan ancha kichik bo‘lgan holatlarda Rayleigh modeli, zarracha o‘lchami to‘lqin uzunligiga yaqin yoki undan katta bo‘lgan hollarda esa Mie modeli chang zarrachalarining optik xususiyatlarini aniqroq tavsiflaydi. Tadqiqot jarayonida lazer nurlanish manbai va fotodiodli qabul qilgichlar asosida ishlab chiqilgan optik o‘lchov tizimi yaratildi hamda uning ishlash prinsipi eksperimental sharoitlarda sinovdan o‘tkazildi. Olingan natijalar ushbu tizim yordamida aerozol zarrachalarining asosiy parametrlarini — hajmiy taqsimot, konsentratsiya, zichlik va fazoviy tarqalishini real vaqt rejimida yuqori aniqlikda aniqlash mumkinligini tasdiqladi. Eksperimental va nazariy natijalarni solishtirish jarayonida Rayleigh modeli kichik dispers zarrachalar uchun yetarlicha aniqlik bersa, Mie modeli esa keng dispersli aerozol tizimlarida optik signalning o‘zgarishini yanada to‘liq va fizik jihatdan asoslangan holda ifodalashi aniqlandi. Shu bilan birga, Mie sochilish modelini real o‘lchov ma’lumotlari bilan integratsiya qilish orqali optik aerozol monitoring tizimlarining sezgirligi va aniqlik darajasini sezilarli oshirish mumkinligi isbotlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: chang zarrachalarida yorug‘lik sochilishini kompleks (Rayleigh + Mie) yondashuv asosida tahlil qilish, lazer-fotodiod tizimiga asoslangan real vaqt monitoring algoritmini ishlab chiqish, Mie sochilish modelini eksperimental kalibrlash orqali optik o‘lchov xatoliklarini kamaytirish. Olingan natijalar sanoat korxonalari, konchilik, qurilish va ekologik monitoring tizimlarida chang zarrachalarini kontaktsiz, tezkor va uzluksiz nazorat qilishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ushbu yondashuv atmosfera havosining ifloslanish darajasini baholash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda zamonaviy optik o‘lchov texnologiyalarini rivojlantirishda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupbekov N.R., Muhamedov B.I., G‘ulomov Sh.M. *Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari*. Texnika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Olqituvchi, 1997. – 704 b.
2. Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., Malikov A. *Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari*. – Toshkent: ToshDTY, 2007. – 237 b.
3. Artikov A.A., Musayev A.K., Yunusov I.I. *Texnologik jarayonlarni boshqarish tizimi: o‘quv qo‘llanma*. – TKTI, 2002.
4. Lapshenkov G.I., Poloskiy L.M. *Avtomatizatsiya proizvodstvennykh protsessov v khimicheskoy promyshlennosti*. – Moskva: Khimiya, 1991. – 180 s.
5. Dudnikov E.G. (tahr.), *Avtomaticheskoe upravlenie v khimicheskoy promyshlennosti: uchebnik dlya vuzov*. – Moskva: Khimiya, 1987. – 358 s.
6. Emelyanov A.I. va boshqalar. *Proyektirovaniye avtomatizirovannykh sistem upravleniya tekhnologicheskimi protsessami*. – Moskva: Mashinostroyeniye, 1984. – 155 s.
7. Kulakov M.V. *Tekhnologicheskiye izmereniya i pribory dlya khimicheskikh proizvodstv*. 3-e izd. – Moskva: Mashinostroyeniye, 1983. – 424 s.
8. Blagoveshchenskaya M.M., Voronina N.O. *Avtomatika i avtomatizatsiya pishchevykh proizvodstv*. – Moskva: Agropromizdat, 2011. – 239 s.
9. Krasnov A.E., Zlobin L.A. *Tsifrovye sistemy upravleniya v pishchevoy promyshlennosti*. – Moskva: DLB Ekonomika, 2009. – 356 s.
10. Pivovarov P.P., Alekseev A.V. *Tekhnologicheskoe oborudovaniye predpriyatiy pishchevoy promyshlennosti*. – Moskva: Professiya, 2012. – 420 s.

ISSN 3030-3907

ОБЗОР ИССЛЕДОВАНИЙ ПОЛУЧЕНИЯ НАТУРАЛЬНЫХ СОРБЕНТОВ ДЛЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

практические рекомендации по интеграции данной системы в национальные образовательные платформы.

Ключевые слова: персонализированное обучение, адаптивная образовательная траектория, искусственный интеллект в образовании, профиль учащегося, диагностика уровня знаний, рекомендательные системы, машинное обучение, фильтр Калмана, адаптивность контента.

Abstract. This scientific article explores one of the most pressing issues in the modern education system: the formation of personalized learning trajectories (pathways) within a digital learning environment, taking into account students' individual interests and baseline knowledge levels. Since the traditional "one-size-fits-all" model no longer meets the demands of the contemporary era, the paper proposes mechanisms for personalizing education based on artificial intelligence (AI), machine learning algorithms, and adaptive testing systems. Throughout the study, models for creating students' psychological-pedagogical profiles, diagnosing knowledge gaps, and building flexible recommender systems were analyzed. The research results indicate that personalized learning pathways increase student motivation by an average of 35% and the learning acquisition coefficient by 22%. Concluding the article, practical recommendations are developed for integrating this system into national educational platforms.

Keywords: personalized learning, adaptive learning trajectory, artificial intelligence in education, student profile, knowledge level diagnostics, recommender systems, machine learning, Kalman filter, content adaptability.

KIRISH.

Axborot va innovatsiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asrda ta’lim tizimi tub burilish bosqichini boshdan kechirmoqda. An’anaviy ta’lim tizimi o‘zining uzoq yillik samaradorligiga qaramay, bir muhim kamchilikka ega: u sinfdagi barcha o‘quvchilarni bir xil intellektual salohiyat, idrok qilish tezligi va qiziqish doirasiga ega deb hisoblaydi. Biroq, pedagogik va neyrobiologik tadqiqotlar har bir insonning axborotni qayta ishlash va eslab qolish mexanizmi mutlaqo o‘ziga xos (individual) ekanligini isbotlamoqda.

Bugungi kunda o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan qiziqishining pasayishi va "akademik charchoq" (burnout) holatlari ko‘pincha ularga taqdim etilayotgan materiallarning o‘ta murakkabligi yoki aksincha, juda sodda va zerikarli ekanligi bilan bog‘liq. Ushbu muammoning optimal yechimi — shaxsiylashtirilgan ta’lim (personalized learning) hisoblanadi.

Shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishi — bu o‘quvchining joriy bilim darajasi, o‘rganish uslubi (vizual, audio, tekstual), qiziqishlari va o‘zlashtirish dinamikasidan kelib chiqib, dinamik ravishda o‘zgarib turadigan o‘quv rejasi va materiallar ketma-ketligidir. Mazkur maqolada o‘quvchilarning qiziqishlari va

ISSN 3030-3907

bilim darajasini matematik va algoritmik modellar yordamida aniqlash hamda ular uchun ideal o‘quv yo‘nalishini avtomatlashtirilgan tarzda tavsiya qilish tizimining nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi.

Muammoning qo‘yilishi va dolzarbligi

Hozirgi kunda ta’limni raqamlashtirish (E-learning, LMS platformalari) keng miqyosda amalga oshirilmoqda, biroq ko‘plab platformalar shunchaki elektron kutubxona vazifasini bajarmoqda. Tizim o‘quvchining materialni qanchalik tushunayotganini real vaqt rejimida kuzatib bormaydi.

Ilmiy muammo quyidagilardan iborat:

1. Statik o‘quv dasturlari: O‘quvchi ma’lum bir mavzuni mukammal bilsa ham, dastur bo‘yicha keyingi bosqichga o‘ta olmaydi, vaqt yo‘qotadi.

2. Bilimlar uzorligi (Knowledge Gaps): O‘quvchi fundamental tushunchani (masalan, matematikada kasrlarni) tushunmasdan turib, murakkabroq mavzuga (tenglamalarga) o‘tsa, tizim buni to‘xtata olmaydi, natijada o‘zlashtirish butunlay pasayib ketadi.

3. Motivatsiya yetishmasligi: O‘quvchining shaxsiy qiziqishlari (masalan, robototexnika yoki san’at) fizika yoki tarix darslaridagi misollarga proyeksiya qilinmaydi.

Shu sababli, o‘quvchi parametrlarini aniq o‘lchaydigan va unga mos kontent yetkazib beradigan intellektual model yaratish ta’lim texnologiyalarining (EdTech) eng dolzarb vazifasidir.

O‘quvchining individual profilini shakllantirish

Shaxsiylashtirilgan tizim yaratish uchun birinchi navbatda har bir o‘quvchining raqamli portreti yoki "O‘quvchi profili" (Student Model) yaratilishi kerak. Ushbu profil ikki guruh ma’lumotlaridan iborat bo‘ladi:

Statik ma’lumotlar:

- Yoshi, jinsi va geografik joylashuvi.
- Boshlang‘ich anketa so‘rovnomalari orqali aniqlangan qiziqishlari (masalan, IT, tabiat, adabiyot).
- Dominant o‘rganish uslubi (Flemingning VARK modeliga ko‘ra: Vizual, Audial, O‘qish/Yozish, Kinestetik).

Dinamik ma’lumotlar:

- Joriy bilim darajasi (har bir fan va uning kichik mavzulari kesimida).
- Tizimda sarflangan vaqt (bitta dars yoki test ustida qancha vaqt o‘tirdi).
- Xatoliklar profili (qaysi turdagi savollarda ko‘p xato qiladi).
- Faollik indeksi (kunlik, haftalik tizimga kirish chastotasi).

O‘quvchining qiziqishlarini aniqlashda Matn tahlili (NLP - Natural Language Processing) texnologiyasidan foydalanish mumkin. O‘quvchi tizim ichidagi

ISSN 3030-3907

forumlarda yoki ochiq savollarda yozgan matnlari orqali uning qaysi sohalarga qiziqishi yuqori ekanligi aniqlanadi.

Bilim darajasini diagnostika qilish va baholash modellari

O‘quvchining bilim darajasini shunchaki "baho" (5, 4, 3) bilan o‘lchash eskirgan usuldir. Zamonaviy tizimlarda Item Response Theory (IRT - Savol-javob nazariyasi) va Bayesian Knowledge Tracing (BKT - Bayas bilimlarini kuzatish) modellaridan foydalaniladi.

Item Response Theory (IRT)

IRT modeliga ko‘ra, testdagi har bir savolning uchta parametri bo‘ladi:

1. a_i (Diskriminativlik/Ajratuvchanlik): Savol bilimli o‘quvchini bilimsizdan qanchalik aniq ajrata olishi.
2. b_i (Murakkablik): Savolning qiyinchilik darajasi.
3. c_i (Tasodifiy topish ehtimoli): O‘quvchi javobni shunchaki taxmin qilib topish ehtimoli (masalan, 4 ta variantli testda $c_i = 0.25$).

O‘quvchining haqiqiy bilim darajasi (θ) quyidagi logistik funksiya orqali hisoblanadi:

$$P(X_i = 1|\theta) = c_i + \frac{1 - c_i}{1 + e^{-a_i(\theta - b_1)}}$$

Bu yerda $P(X_i = 1 \mid \theta)$ – bilim darajasi θ ga teng bo‘lgan o‘quvchining i - savolga to‘g‘ri javob berish ehtimoli. Agar o‘quvchi murakkab savollarga to‘g‘ri javob bersa, uning θ koeffitsiyenti dinamik ravishda yuqoriga ko‘tariladi.

Bayesian knowledge tracing (BKT)

BKT modeli o‘quvchining ma’lum bir ko‘nikmani (masalan, "kvadrat tenglamalarni yechish") o‘zlashtirganlik ehtimolini vaqt o‘tishi bilan kuzatib boradi. U yashirin Markov zanjiriga asoslanadi va 4 ta ehtimollik parametriga ega:

- $P(L_0)$ – O‘quvchining mavzuni boshlashdan oldin bilish ehtimoli.
- P(T) – O‘quvchi dars jarayonida mavzuni o‘rganish (o‘zlashtirish) ehtimoli.
- P(G) – Mavzuni bilmasdan turib, tasodifan to‘g‘ri topish ehtimoli (*Guess*).
- P(S) – Mavzuni bilsa ham, beparvolik qilib xato javob berish ehtimoli (*Slip*).

Har bir javobdan so‘ng o‘quvchining bilim darajasi ehtimolligi yangilanadi va Bayes formulasi yordamida qayta hisoblanadi.

Shaxsiylashtirilgan tavsiya tizimining algoritmik asosi (Recommender systems)

O‘quvchi profili va bilim darajasi aniqlangach, tizim navbatdagi eng mos keluvchi o‘quv materialini (video, maqola, test) tavsiya qilishi kerak. Buning uchun asosan ikki xil yondashuv kombinatsiyasi (gibrid tizim) qo‘llaniladi:

Kollaborativ Filtrlash (Collaborative filtering)

Ushbu algoritm "O‘xshash o‘quvchilar o‘xshash materiallarni yaxshi o‘zlashtiradi" degan gipotezaga asoslanadi. Masalan, Agar A o‘quvchi va B

ISSN 3030-3907

o‘quvchining qiziqishlari va bilim darajasi juda o‘xshash bo‘lsa, va A o‘quvchiga ma’lum bir video darslik juda foydali bo‘lgan bo‘lsa (u darsdan keyingi testni a’lo topshirgan), tizim ushbu video darslikni B o‘quvchiga ham tavsiya qiladi.

O‘quvchilar o‘rtasidagi o‘xshashlikni hisoblash uchun Kosinusli o‘xshashlik (Cosine Similarity) formulasidan foydalaniladi:

$$Sim(U_1, U_2 = \frac{\sum(R_{1,i} \cdot R_{2,i})}{\sqrt{\sum R_{1,i}^2} \cdot \sqrt{\sum R_{2,i}^2}}$$

Kontentga asoslangan filtrlash (Content-based filtering)

Bu usul o‘quv materialining xususiyatlarini (metama’lumotlarini) o‘quvchining qiziqishlari bilan solishtiradi. Agar o‘quvchi "Kosmos va astronomiya" sohasiga qiziqsa, unga fizikadan "Butunjahon tortishish qonuni" mavzusi tushuntirilayotganda, misollar sayyoralar va yulduzlar harakati misolida taqdim etiladi.

Shaxsiylashtirilgan o‘quv trayektoriyasining arxitekturasi

Tavsiya tizimi real vaqt rejimida ishlashi uchun quyidagi uch qatlamli arxitekturaga ega bo‘lishi lozim:



1-rasm. O‘quvchi faoliyatini tahlil qilish va individual o‘quv yo‘nalishini shakllantirishning adaptiv intellektual tizimi arxitekturasi

ISSN 3030-3907

Amaliy ssenariy: O‘quvchi platformaga kirdi. Tizim dastlabki 5 ta adaptiv savol orqali uning bilimini (θ = -1.2, ya’ni o‘rtachadan past) deb baholadi. Profilida qiziqishi "Kompyuter o‘yinlari" deb ko‘rsatilgan.

Tizim unga nazariyani uzun matn shaklida emas, balki geymifikatsiya (o‘yinlashtirilgan) qilingan qisqa video shaklida beradi. Agar darsdan keyingi testda o‘quvchi xato qilsa, tizim uni asosiy yo‘nalishdan vaqtincha chiqarib, "baza hisoblangan" sodda darsga (mikro-modulga) yo‘naltiradi. Xatosini tuzatgach, yana asosiy trayektoriyaga qaytaradi.

Tajribaviy natijalar va samaradorlik tahlili

Tadqiqot doirasida taklif etilgan modelni sinab ko‘rish maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajribada 200 nafar o‘quvchi ishtirok etdi va ular ikki guruhga ajratildi:

1. **Nazorat guruhi (100 kishi):** An’anaviy chiziqli (barcha uchun bir xil ketma-ketlikdagi) elektron o‘quv dasturi asosida tahsil oldi.

2. **Tajriba guruhi (100 kishi):** Biz taklif etgan shaxsiylashtirilgan, adaptiv o‘quv yo‘nalishlari tizimi orqali tahsil oldi.

1-jadval

3 oylik eksperiment natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	O‘zgarish samaradorligi
O‘rtacha o‘zlashtirish koeffitsiyenti	64%	86%	+ 22%
Platformada faol bo‘lgan o‘rtacha vaqt (haftasiga)	3.2 soat	4.8 soat	+ 50%
Materialni rad etish (tizimdan chiqib ketish) ko‘rsatkichi	28%	6%	- 22%
O‘quvchilarning darsdan qoniqish darajasi (motvatsiya)	55%	90%	+ 35%
Baholash mezonlari	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	O‘zgarish samaradorligi

Xulosa tahlili: Tajriba guruhi o‘quvchilarida motivatsiyaning keskin ortishi ularning qiziqishlariga mos kontent berilganligi bilan izohlanadi. Bilimlar bo‘shlig‘ini vaqtida aniqlash esa o‘zlashtirish koeffitsiyentini 86% gacha ko‘tarilishiga olib keldi.

Tizimni milliy ta’limga integratsiya qilish muammolari va yechimlari

ISSN 3030-3907

Shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini O‘zbekiston Respublikasi raqamli ta’lim tizimiga (masalan, *Kundalik.com* yoki *Maktab.uz* platformalariga) joriy etishda bir qator texnik va ijtimoiy to‘siqlar mavjud:

1. **Raqamli kontentning yetishmasligi:** Adaptiv tizim ishlashi uchun bitta mavzu bo‘yicha kamida 5-6 xil formatdagi (oson, o‘rta, qiyin, vizual, matnli) materiallar bazasi bo‘lishi kerak.

❖ *Yechim:* O‘qituvchilar va metodistlar uchun kontent yaratuvchi intellektual generatorlarni ishga tushirish.

2. **Katta ma’lumotlar (Big Data) bilan ishlash infratuzilmasi:** Millionlab o‘quvchilarning real vaqtdagi harakatlarini tahlil qilish kuchli serverlarni talab qiladi.

❖ *Yechim:* Bulutli texnologiyalar (Cloud computing) va mikroxizmatlar (*microservices*) arxitekturasidan foydalanish.

XULOSA. O‘quvchilarning qiziqishi va bilim darajasini aniqlash asosida shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini tavsiya qilish — ta’lim sifatini inqilobiy tarzda oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv ta’limni demokratlashtiradi, ya’ni har bir o‘quvchi o‘zining individual imkoniyatlari darajasida, eng qulay sharoitda bilim olish imkoniga ega bo‘ladi.

Tadqiqot davomida keltirilgan IRT, BKT va Kollaborativ filtrlash modellari integratsiyasi o‘quv jarayonini to‘liq avtomatlashtirilgan boshqarish imkonini beradi. Kelajakda ushbu tizimlarga Generativ Sun’iy Intellekt (masalan, yirik til modellari - LLM) texnologiyalarini qo‘shish orqali har bir o‘quvchi uchun shaxsiy virtual tyutor (repetitor) yaratish ustida ilmiy izlanishlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baker, R. S., & Inventado, P. S. (2014). *Educational Data Mining and Learning Analytics*. In Learning Analytics (pp. 61-75). Springer, New York, NY.
2. Corbett, A. T., & Anderson, J. R. (1994). *Knowledge tracing: Modeling the acquisition of procedural knowledge*. User Modeling and User-Adapted Interaction, 4(4), 253-278.
3. Hambleton, R. K., Swaminathan, H., & Rogers, H. J. (1991). *Fundamentals of item response theory*. Sage Publications.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O‘zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-son Farmoni.
5. Ricci, F., Rokach, L., & Shapira, B. (2015). *Recommender Systems Handbook*. Springer, New York, NY.

ISSN 3030-3907

POLIMER KARKAS DETALLARIDAN FOYDALANISH ORQALI BOLALAR SEREBRAL FALAJI (DSP) UCHUN ORTOPEDIK POYABZALNING TURLI DARAJADAGI QATTIQLIGINI TA'MINLASH

Samiyeva Gulnoz Olimovna
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti,
E-mail: samiyeva78@inbox.ru
Solihev Mirfayz O‘tkir o‘g‘li
M20-24 YeSTJ guruh magistri

Annotatsiya. Polimer materiallarni qo‘llagan holda konstruktsiya ishlab chiqilgan bo‘lib, u oyoqni poyabzal ichki fazosida mahkamlash darajasini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, tayyor poyabzal og‘irligini kamaytirish va uning estetik xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: poyabzal, qattiqlik, polimer.

Annotation. The design with the polymeric materials which provides great increase of the degree of fixation of the foot in the innerfootwear space and reduce of the weight of the finished shoe and increase of its aesthetic properties was produced.

Keywords: footwear, stiffness, polymer.

Анотация. Разработана конструкция с применением полимерных материалов, позволяющая в значительной степени увеличить степень фиксации стопы во внутриобувном пространстве, а также уменьшить вес готовой обуви и повысить ее эстетические свойства.

Ключевые слова: обувь, жесткость, полимер.

KIRISH.

Mamlakatimizda va xorijda ortopedik poyabzaldan foydalanuvchi insonlar soni sezilarli darajada ko‘p. Bunday poyabzalni loyihalash va tayyorlash kasallik turiga bog‘liq. Bolalar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bu bolalar serebral falaji (BSF) hisoblanadi. Ushbu kasallik turi markaziy asab tizimining progressiv bo‘lmagan zararlanishi, miyaning kam rivojlanganligi bilan tavsiflanadi. Bu harakat buzilishlarida (falaj, mushaklar tortishishi, nutqning buzilishi), muvozanatning buzilishida, ehtimol, intellektual buzilishlar va epilepsiyada namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mahalliy klinik amaliyotda ko‘pincha K.A.Semenova [1] tasnifi qo‘llaniladi. Ushbu tasnifga ko‘ra, BSF ning beshta asosiy turi ajratiladi.

Quyidagi jadvalda ushbu turlarning qaysi miya sohasi zararlanishi bilan bog‘liqligi, asosiy belgilari va uchrovchi darajasi haqida umumiy ma'lumot berilgan:

ISSN 3030-3907

1-Jadval

Turi	Zararlangan miya sohasi	Asosiy belgilari	Uchrash chastotasi
Ikki tomonlama gemiplegiya	Miyaning jiddiy shikastlanishi	Qo‘l va oyoq funksiyalari deyarli butunlay yo‘qolgan, barcha pay reflekslari juda yuqori, mushak tonusi buzilgan. Nutq butunlay yo‘q.	Homila ichidagi davrda yuzaga keladi
Spastik diplegiya	Harakat markazlari	Bolalar serebral falajining eng keng tarqalgan shakli bo‘lib, bunda aqliy zaiflik kuzatiladi.	Eng keng tar-qalgan turi (barcha holatlarning 40-80%)
Gemiparetik shakl	Harakat markazlari	Kasallikning bu shakli bir tomonlama qo‘l va oyoqning shikastlanishi bilan tavsiflanadi.	BSFning keng tarqalgan shakl-laridan biri
Giperkinetik shaklning sababi bo‘lib, bunda ham uchraydi. Prognoz nuqtai nazaridan, bu o‘qish va ijtimoiy moslashuv uchun ancha qulay shakldir.	Mushak tonusi va nutq funksiya-sining buzilishi	Tananing faqat bir tomoni yoki har ikki tomoni (ikki tomonlama gemi-plegiya) shaklida qo‘l-oyoqlar va tana mushaklarida qattiq taranglik kuzatiladi. Bu BSFning eng og‘ir turi hisoblanadi.	Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning kasalliklari
Atonik-astatik shakl	Miyacha (serebellum)	Mushaklar kuch-sizligi (atoniya),	Bolaning muvo-zanati va hara-

ISSN 3030-3907

		muvozanatni saq-lash qiyinlishuvi (ataksiya), tez-tez yiqilish, qo‘l-larning titrashi (tremor)	katlar muvofiqligi buziladi

Tayanch harakati tizimida sezilarli darajadagi nuqsonlar mavjud [2]. Bolalarda zararlanish turiga qarab, psixik holat yoki harakat faolligi, yoki ikkalasi birgalikda buzilgan bo‘lishi mumkin.

BSP kasalligida ko‘pincha tayanch harakati tizimidagi qo‘shimcha deformatsiyalar kuzatiladi. Bularga valgus deformatsiyasi, spastiklik (mushaklarning tirishishi), to‘piq bo‘g‘imining kontrakturasi va oyoq parezlari (falaji) kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Butun kompleksni hisobga olgan holda, buyumning qattiqlik darajasi va qattiqlik topografiyasi (joylashuvi) aniqlanadi. BSP bilan og‘rigan bolalar uchun poyabzalning maxsus qattiq detallariga quyidagilar kiradi:

Qattiq tumshuq osti detali - ortopedik poyabzal ustki qismining oraliq detali bo‘lib, poyabzal tumshuq sohasida joylashgan. U odatiy tumshuq osti detalining shakli jihatidan farq qiladi, bu og‘riqli joylar yoki oyoq barmoqlarining yo‘qligini hisobga oladi. Uzun, kalta va o‘roqsimon tumshuq osti detallaridan foydalaniladi.

Qattiq gulchin (zadnik) - bu ortopedik poyabzal uchun oraliq yoki tashqi detal bo‘lib, poyabzalning tovon va taglik (gelonok) qismida joylashgan.

Qattiq tumshuq osti detali (podnosok) - ortopedik poyabzal uchun oraliq detal bo‘lib, u poyabzal ustining panja qismida joylashgan. Oddiy tumshuq osti detali oyoqda og‘riqli joylar mavjudligi yoki barmoqlarning yo‘qligini hisobga oluvchi shakli bilan farqlanadi. Uzaytirilgan, qisqartirilgan va yarim oy shaklidagi tumshuq osti detallari qo‘llaniladi.

Qattiq betlik (ustki qism) - ortopedik poyabzal uchun oraliq detal bo‘lib, poyabzalning barmoq-dastak (nosochno-puchkovaya) qismida joylashgan.

Qattiq dastak (yonlik) - oraliq detal bo‘lib, poyabzalning taglik (gelonochnaya) qismida joylashgan va qattiq soyuzkaning qanoti shakliga ega.

Qattiq tilcha (yazichok) - ortopedik botinka uchun oraliq detal bo‘lib, oldingi qism (berts) ostida joylashgan.

Qattiq berets (qo‘nj) - taglik va tovon qismlarida qattiqlikni oshiruvchi maxsus detal. Shakliga ko‘ra bir tomonlama, ikki tomonlama, aylanma va orqa turlarga bo‘linadi.

Oyoq pronatsiyasi (ichki tomonga qiyshayishi) holatida tashqi tomondan bir tomonlama qattiq qo‘njli (berts) ortopedik botinkalar tayinlash talab etiladi,

ISSN 3030-3907

supinatsiyada (tashqi tomonga qiyshayishi) esa - ichki tomondan. Ikkala holatda ham poshnaning chiqarilishi (olib tashlanishi) amalga oshiriladi va ichki qatlamlararo qatlam mos ravishda supinator yoki pronator bilan to‘ldirilishi kerak.

Tovon bo‘g‘imida qattiq osilib qolish yoki haddan tashqari harakatchanlik mavjud bo‘lganda, ikki tomonlama yoki aylanma qattiq qo‘njli (berts) botinkalar tavsiya etiladi. Aylanma qattiq qo‘nj (berts) ishonchli mahkamlash bilan bir qatorda, dumalashni (odimlash paytida oyoqni yumaloqlab bosishni) amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma'lum bir oldingi tayanchni ham yaratadi.


Loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar bo‘lib kolodkaning parametrlari, shakli va o‘lchamlari hisoblanadi, ular bolalar oyog‘ining individual parametrlariga bog‘liq. Poyabzal go‘njli (bertsoviy) kolodkalarda tayyorlanadi (ГОСТ Р 53800-2010 «Ortopedik poyabzal kolodkalari. Umumiy texnik talablar»). Kolodkaning yuqori qismi – pastki boldir qismini taqlid qiluvchi trubadir [3]. Kolodka iste'molchi oyog‘ining individual parametrlariga mos ravishda to‘g‘rilanadi (pripravka qilinadi). To‘g‘rilash (pripravka) namat (kigiz) qoplamalar yordamida amalga oshiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Aniqlanishicha, ortopedik poyabzalni oyoqqa mahkamlash usullari orasida: birinchi o‘rinda bog‘ichlar (shnurki), ikkinchi o‘rinda toqalar (pryajki), uchinchi o‘rinda "velkro" lentalari qo‘llaniladi.

Konstruksiya ular ishlab chiqariladigan oraliq material bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ortopedik ishlab chiqarishda qattiq detallar uchun eng ko‘p talab qilinadigan material polimer hisoblanadi, chunki u shikastlangan oyoq-qo‘lning individual xususiyatlariga qarab fazoviy parametrlarni shakllantirish imkonini beradi [4].

Oyoqni poyabzal ichki fazosida mahkamlashning qattiqlik bilan bog‘liq 4 asosiy darajasi mavjud. 1-rasmda baland qattiq orqachali (zadnik) konstruksiya chizmasi taqdim etilgan. Poyabzalning ushbu konstruksiyasi pastki ekstremitalardagi kichik nuqsonlarda tayinlanadi. Rasmda shtrixlov (aylanib chizish) bilan polimer materiallar hisobiga yaratilgan yuqori qattiqlikdagi qism belgilangan.


ISSN 3030-3907



1-rasm. To‘piq bo‘g‘imining kichik (yengil) darajadagi mahkamlanishiga ega bo‘lgan poyabzal konstruksiyasi.


Ushbu konstruksiyada tavsiya etiladigan mahkamlash usullari toqalar (pryajki), "velkro" lentalari yoki bog‘ichlardir (shnurki). 2-rasmda taqdim etilgan modelda qattiq detallar sifatida baland qattiq qo‘nj (berts) qo‘llanilgan. Oyoqni mahkamlash darajasi sezilarli darajada oshirilgan. Oyoqqa mahkamlashning tavsiya etiladigan usullari toqalar va bog‘ichlardir.

3-rasmda taqdim etilgan modelda qattiq detallar baland qattiq qo‘nj (berts) va qattiq yonlikdan (bochok) iborat. Poyabzalning ushbu konstruksiyasi pastki ekstremitalarda jiddiy deformatsiyalari bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Polimer materiallardan tayyorlangan taglik (gelonochnaya) qismidagi uzaytirilgan qismlarning mavjudligi oyoqni poyabzal ichki fazosida mahkamlashni sezilarli darajada oshiradi, bu ayniqsa oyoqning valgusi va ekino-varusi hamda oyoq old qismining adduksiyasi (ichga qiyshayishi) kabi nuqsonlarda muhimdir. Oyoqqa mahkamlashning tavsiya etiladigan usullari toqalar va bog‘ichlardir. Ushbu konstruksiyalarda "velkro" lentalari bilan mahkamlashdan yaxshisi saqlanish kerak.



2-rasm. To‘piq bo‘g‘imining normal darajadagi mahkamlanishiga ega bo‘lgan poyabzal konstruksiyasi.


ISSN 3030-3907



3-rasm. To‘piq bo‘g‘imining sezilarli (kuchli) darajadagi mahkamlanishiga ega bo‘lgan poyabzal konstruksiyasi.

Pastki ekstremitalarda jiddiy nuqsonlar mavjud bo‘lganda, to‘piq bo‘g‘imini maksimal darajada mahkamlash tavsiya etiladi. Bunday hollarda, to‘piq bo‘g‘imi sohasida uzaytirilgan qattiq qo‘njlardan (berts) tashqari, poyabzalning ustki qismi (soyuzka) va tilchasi (yazichok) sohasida termoplastik materiallar ham qo‘llaniladi (4-rasm). Bunda poyabzalda oyoqni maksimal darajada mahkamlashga erishiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan qattiq detallarga ega bo‘lgan konstruksiyada bog‘ichlar (shnurki) yoki bog‘ichlarni "velkro" lentalari bilan birgalikda qo‘llash tavsiya etiladi.



4-rasm. To‘piq bo‘g‘imining maksimal darajadagi mahkamlanishiga ega bo‘lgan poyabzal konstruksiyasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Polimer materiallarni qo‘llagan holda ishlab chiqilgan konstruksiyalar oyoqni poyabzal ichki fazosida mahkamlash darajasini sezilarli darajada oshirish, shuningdek, tayyor poyabzal og‘irligini kamaytirish va uning estetik xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Семенова К.А. Детские церебральные параличи. – М.: Медицина, 1968г.
2. Семенова К.А. Восстановительное лечение у детей с перинатальными поражениями нервной системы и ДЦП. – М.: Антидор, 2007. – 263 с.
3. Musayev S.S. Yakka buyurtmalar bo‘yicha poyabzal tayyorlash texnologiyasi. B.:Durdona, 2020y.
5. Бекк Н.В., Клюева И.В., Тихонова Н.В. Подгоночные колодки в структуре технологической подготовки ортопедического производства.// Вестник Казанского технологического университета.- Казань: КНИТУ, № 1, 2013, с.243-245.
6. Мусаев С.С., Самиева Г.О. Термические исследования свойств обувных подошвенных композиций. “Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности”. Ивановский Государственный Политехнический Институт. 2023 год №4(406), 236-243 с.
7. Musaev S.S., Samieva G.O. Optimization of values of technological parameters for obtaining thermoplastic polymer composition for bottom shoes. Leather and Footwear Journal. Revista de pielarie incaltaminte. Bucharest: 2021. Volume 21. No. 4. P. 247-256.

ISSN 3030-3907

MAHALLIY XOMASHYOLARDAN TAYYORLANGAN ARZON VA YUQORI SAMARALI ADSORBENTLAR ASOSIDA O‘SIMLIK MOYLARINI OQARTIRISH TEXNOLOGIYASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH.

Hafizov Ulug‘bek Usmonovich
Buxoro davlat texnika universiteti doktoranti
Xodjiyev Shuhrat Mahmudovich
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalliy xomashyolardan tayyorlangan arzon va yuqori samarali adsorbentlar asosida o‘simlik moylarini oqartirish texnologiyasini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘simlik moylarini rafinatsiya qilish jarayonida oqartirish bosqichi mahsulotning rangi, tiniqligi, oksidlanishga chidamliligi va iste’mol sifati uchun muhim texnologik jarayon hisoblanadi. Tadqiqot mavzusi doirasida bentonit, kaolin, alumosilikatli gillar, faol ko‘mir hamda qishloq xo‘jaligi chiqindilari asosida olinadigan biosorbentlarning adsorbsion xususiyatlari, ularni faollashtirish usullari va moy tarkibidagi rang beruvchi moddalarni kamaytirishdagi samaradorligi yoritiladi.

Kalit so‘zla: o‘simlik moylari, oqartirish texnologiyasi, adsorbent, mahalliy xomashyo, bentonit, kaolin, faollashtirilgan gil, biosorbent, rafinatsiya, adsorbsiya, oziq-ovqat sanoati, ekologik texnologiya.

Аннотация. В данной статье научно анализируются вопросы совершенствования технологии отбеливания растительных масел на основе дешевых и высокоэффективных адсорбентов, полученных из местного сырья. В процессе рафинации растительных масел стадия отбеливания является важным технологическим этапом, определяющим цвет, прозрачность, окислительную стабильность и потребительские свойства готовой продукции. В рамках рассматриваемой темы освещаются адсорбционные свойства бентонита, каолина, алюмосиликатных глин, активированного угля, а также биосорбентов, получаемых из сельскохозяйственных отходов.

Ключевые слова: растительные масла, технология отбеливания, адсорбент, местное сырье, бентонит, каолин, активированная глина, биосорбент, рафинация, адсорбция, пищевая промышленность, экологическая технология.

Abstract. This article provides a scientific analysis of improving the technology of vegetable oil bleaching using low-cost and highly efficient adsorbents produced from local raw materials. In the refining process of vegetable oils, the bleaching stage is an important technological step that determines the color, clarity, oxidative stability and consumer quality of the final product. Within the scope of the study,

ISSN 3030-3907

the adsorption properties of bentonite, kaolin, aluminosilicate clays, activated carbon and biosorbents derived from agricultural waste are discussed.

Keywords: vegetable oils, bleaching technology, adsorbent, local raw materials, bentonite, kaolin, activated clay, biosorbent, refining, adsorption, food industry, environmental technology.

KIRISH.

O‘simlik moylarini qayta ishlash texnologiyasida rafinatsiya jarayoni mahsulotning iste’molga yaroqliligi, tashqi ko‘rinishi, saqlanish barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlovchi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Paxta, kungaboqar, soya, raps, maxsar va boshqa o‘simlik moylari tarkibida triglitseridlar bilan bir qatorda fosfolipidlar, erkin yog‘ kislotalari, mumsimon moddalar, metall ionlari, oksidlanish mahsulotlari, karotinoidlar, xlorofill va boshqa rang beruvchi birikmalar uchraydi. Ushbu qo‘shimcha komponentlarning ma’lum qismi moyning rangini to‘qlashtiradi, saqlanish muddatini qisqartiradi hamda keyingi texnologik bosqichlarda noxush ta’m va hid hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi [1]. Shu bois moylarni oqartirish jarayoni faqat kosmetik maqsadda rangni yaxshilash emas, balki mahsulotning oksidlanishga chidamliligi va sifat ko‘rsatkichlarini oshirishga qaratilgan kompleks texnologik bosqich sifatida baholanadi. Zamonaviy manbalarda oqartirish bosqichi moy tarkibidan xlorofill, qoldiq sovun, fosfolipidlar, iz metallari va oksidlanish mahsulotlarini kamaytirishi ta’kidlanadi.

Adabiyotlarda o‘simlik moylarini oqartirish asosan adsorbsion jarayon sifatida talqin qilinadi. Bunda moy ma’lum haroratda, vakuum yoki inert muhit sharoitida adsorbent bilan aralashtiriladi, so‘ngra ishlatilgan adsorbent filtrlash orqali ajratib olinadi. Jarayon samaradorligi adsorbentning mineralogik tarkibi, g‘ovaklik darajasi, solishtirma yuzasi, kislotalilik yoki ishqoriylik xususiyati, namligi, zarracha o‘lchami, adsorbent miqdori, kontakt vaqti, harorat hamda aralashtirish intensivligiga bog‘liq. AOCS materiallarida ham oqartirish oddiy aralashtirish va filtrlashdan iboratdek ko‘rinsa-da, uning kimyoviy-fizik mexanizmi ko‘p omilli murakkab jarayon ekani qayd etilgan. Demak, adsorbent tanlash bilan bir qatorda texnologik rejimlarni optimallashtirish ham yuqori sifatli mahsulot olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oqartirish sanoatida eng keng qo‘llanadigan adsorbentlar qatoriga tabiiy va faollashtirilgan bentonitlar, montmorillonitli gillar, kaolin, sepiolit, attapulgit, silikagel, aktivlangan ko‘mir hamda ularning kompozit aralashmalari kiradi. Ayniqsa bentonit asosidagi oqartiruvchi gillar oziq-ovqat moylari sanoatida keng ishlatiladi, chunki ular nisbatan arzon, tabiiy manbadan olinadi va kislota yoki termik ishlov berish orqali yuqori sorbsion faollikka ega bo‘lishi mumkin [2]. Hussin va hammualliflar tomonidan bajarilgan sharh ishida gilli minerallarning o‘simlik moylarini tozalashda keng qo‘llanishi ularning mahalliy mavjudligi,

ISSN 3030-3907

arzonligi va samaradorligi bilan izohlanadi; mualliflar adsorbent samaradorligida tekstura, sirt kimyosi va faollashtirish usullarining muhim rolini alohida ta’kidlaydilar.

Bentonitlarning oqartirishdagi samaradorligi ularning montmorillonit miqdori, qatlamli tuzilishi, almashinuvchan kationlari va sirt faol markazlari bilan belgilanadi. Tabiiy bentonitlar ayrim holatlarda yetarli darajada faol bo‘lmagani sababli ular kislota, ishqor, tuzlar, organik modifikatorlar, termik ishlov yoki pillaring usullari orqali modifikatsiya qilinadi [3]. Kislota bilan faollashtirishda bentonit tarkibidagi Al, Fe, Mg kabi oktaedrik kationlarning bir qismi yuvilib chiqadi, g‘ovaklik ortadi, solishtirma sirt maydoni kengayadi va moy tarkibidagi pigment hamda qutbli aralashmalarni yutish qobiliyati oshadi. Shu bilan birga, kislota konsentratsiyasi haddan tashqari yuqori bo‘lsa, gil skeleti ortiqcha yemirilishi, filtrlanish qiyinlashishi va moy yo‘qotilishi ko‘payishi mumkin. Shuning uchun faollashtirish sharoitlarini ilmiy asosda tanlash zarur.

Didi va hammualliflar kolza moyini oqartirish uchun Jazoir bentonitini kislota bilan faollashtirish sharoitlarini optimallashtirgan va 3^3 faktorli tajriba dizayni yordamida kislota konsentratsiyasi, kontakt vaqti hamda haroratning oqartirish samaradorligiga ta’sirini baholagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, maqbul sharoitda olingan faollashtirilgan bentonit kolza moyini oqartirishda samarali adsorbent sifatida namoyon bo‘lgan [4]. Ushbu tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, har bir mahalliy bentonit koni uchun universal faollashtirish rejimi mavjud emas; xomashyoning mineralogik va kimyoviy tarkibidan kelib chiqib, alohida optimallashtirish zarur.

Paxta moyi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ham bentonitlarning strukturaviy xususiyatlari bilan oqartirish samaradorligi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Foletto, Volzone va Porto tomonidan o‘tkazilgan ishda xlorid kislota konsentratsiyasi va bentonitning dastlabki mineralogik tarkibi paxta moyini tiniqlashtirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan [5]. Mualliflar ayrim hollarda smektit miqdori yuqori bo‘lmagan namunalar ham kislota ishlovi natijasida yaxshi natija berishi mumkinligini qayd etganlar; bu esa oqartirish faolligi faqat smektit ulushi bilan emas, balki oktaedrik qatlamlarning qayta tuzilishi va sirt faol markazlarining shakllanishi bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kungaboqar moyini oqartirishda ham kislota bilan faollashtirilgan bentonitlarning samaradorligi keng o‘rganilgan. Foletto va hammualliflar Mendoza hududidan olingan ikki xil mineralogik tarkibli bentonitni H_2SO_4 eritmalari bilan faollashtirib, ularning kungaboqar moyini oqartirish qobiliyatini sanoatda qo‘llanadigan tijorat adsorbenti bilan taqqoslaganlar [6]. Tadqiqotda oqartirish samaradorligi kislota konsentratsiyasiga kuchli bog‘liq bo‘lib, ayrim

ISSN 3030-3907

faollashtirilgan namunalar tijorat oqartiruvchi gili bilan taqqoslanadigan natija ko‘rsatgani aniqlangan. Bu ma’lumotlar mahalliy xomashyo asosida import o‘rnini bosuvchi adsorbentlar ishlab chiqish imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi.

Oqartirish jarayonida adsorbentning faqat rang beruvchi pigmentlarni yutish qobiliyati emas, balki moyning oksidlanish barqarorligiga ta’siri ham muhimdir. Adsorbent pigmentlar bilan birga peroksidlar, ikkilamchi oksidlanish mahsulotlari va metall ionlarini kamaytirishi mumkin, biroq haddan tashqari faol sirt yoki noto‘g‘ri tanlangan sharoitlar tokoferollar kabi biologik faol moddalarning kamayishiga ham olib kelishi ehtimoli bor. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda oqartirish samaradorligi odatda Lovibond rangi, karotinoid va xlorofill miqdori, kislota soni, peroksid soni, fosfor qoldig‘i, metall ionlari, yog‘ning adsorbentda ushlanib qolishi va oksidlanish barqarorligi kabi ko‘rsatkichlar orqali kompleks baholanadi [7]. Škevin va hammualliflar soya moyini oqartirish parametrlarini optimallashtirishda harorat, kontakt vaqti va adsorbent miqdori oksidlanish barqarorligi hamda bioaktiv komponentlar saqlanishiga ta’sir qilishini ko‘rsatganlar.

Mahalliy xomashyolardan arzon adsorbentlar olish masalasi O‘zbekiston sharoitida ayniqsa dolzarbdir. O‘zbekiston hududida bentonit, kaolin va boshqa alumosilikatli xomashyolar zaxiralari mavjud bo‘lib, ularni oziq-ovqat moylarini rafinatsiya qilishda qo‘llash import adsorbentlarga qaramlikni kamaytirishi, mahsulot tannarxini pasaytirishi hamda mahalliy sanoat uchun qo‘shimcha qiymat yaratishi mumkin. Ismoilova va hammualliflar O‘zbekiston bentonitlari asosida o‘simlik moylarini oqartirish uchun gilli adsorbentlar olish imkoniyatini tadqiq qilganlar; ular Krantau va Askamar bentonitlarini faollashtirishdan so‘ng adsorbsion xususiyatlar dastlabki holatga nisbatan sezilarli ortganini qayd etganlar [8]. Mazkur tadqiqotda mahalliy bentonitlar asosida olingan adsorbentlar mikrog‘ovak va mezog‘ovak xususiyatlarga ega bo‘lishi, bu esa moydagi qutbli va rang beruvchi moddalarning adsorbsiyasi uchun muhim ekanligi ko‘rsatilgan.

Navbahor koni bentonitlari bo‘yicha bajarilgan tadqiqotlar ham mahalliy xomashyo istiqbolini tasdiqlaydi. Boyjanov va hammualliflar Navbahor ishqoriy bentonitining paxta moyini oqartirishdagi adsorbsion xususiyatlarini o‘rganib, ishqoriy bentonitni 190–200 °C atrofida termik faollashtirish va 2 soatlik ishlov berish maqbul sharoit sifatida ko‘rsatilganini qayd etganlar; paxta moyini oqartirish uchun esa 85 °C harorat va 30 daqiqalik jarayon vaqti optimal sharoit sifatida belgilangan [9]. Bu natijalar mahalliy bentonitning faqat kimyoviy emas, balki termik faollashtirish orqali ham texnologik qiymatini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Krantov koni bentonitlari asosida olib borilgan tadqiqotlarda ham kislota bilan faollashtirilgan gilli adsorbentlarning o‘simlik moylarini tozalashda amaliy

ISSN 3030-3907

qo‘llanishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Sherko‘ziyeva, Nazirova va Salikxanova tomonidan e’lon qilingan ishda mahalliy Krantov bentonitidan olingan adsorbent maxsar moyi rang intensivligini, kislota sonini va peroksid sonini kamaytirishda samarali bo‘lgani qayd etilgan [10]. Manbada adsorbent qo‘llangandan keyin moyning oksidlanish barqarorligi 150 kun davomida GOST talablariga mos kelgani ko‘rsatilgan. Bu natijalar mahalliy adsorbentlar asosida nafaqat oqartirish, balki mahsulotni uzoqroq saqlashga yo‘naltirilgan texnologiyani takomillashtirish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda adabiyotlarda faqat mineral xomashyo emas, balki qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati chiqindilaridan olingan biosorbentlar ham o‘simlik moylarini oqartirishda qo‘llanmoqda. Guruch qobig‘i, yong‘oq po‘chog‘i, tuxum po‘chog‘i, kokos qobig‘i, pista va boshqa lignotsellyulozali chiqindilar piroliz, kuydirish, kislota yoki ishqor bilan ishlov berish, karbonizatsiya va aktivatsiya orqali g‘ovak adsorbentlarga aylantiriladi. Bunday yondashuvning ustunligi shundaki, xomashyo arzon, mahalliy va qayta tiklanuvchi bo‘lib, chiqindilarni qayta ishlash orqali ekologik yuk kamayadi. Shu bilan birga, biosorbentlarning kimyoviy tarkibi bir xil bo‘lmagani sababli ularni standartlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligi talablariga mosligini tekshirish va sanoat filtrlash bosqichiga moslashtirish zarur.

Tuxum po‘chog‘i asosidagi adsorbentlar bo‘yicha Abdi, Gharachorloo va Ghavami tomonidan bajarilgan tadqiqotda 2% tuxum po‘chog‘i kukuni soya moyidagi karotinoidlar va xlorofill miqdorini sezilarli kamaytirgani, shuningdek peroksid qiymati, erkin yog‘ kislotalari va yog‘ ushlanishi ko‘rsatkichlariga ham ta’sir ko‘rsatgani aniqlangan [11]. Yong‘oq po‘chog‘i kuli bilan bajarilgan tadqiqotlarda esa 2% yong‘oq po‘chog‘i kuli soya moyida karotinoidlar va xlorofillni mos ravishda 37,46% va 33,4% gacha kamaytirgani, adsorbentda yog‘ ushlanishi tijorat oqartiruvchi gilga nisbatan pastroq bo‘lgani ko‘rsatilgan [12]. Bu ma’lumotlar chiqindi biomassa asosidagi adsorbentlarning mustaqil yoki kompozit tarkibda qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Biroq mineral va biosorbent adsorbentlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Amaliy jihatdan eng maqbul yondashuv ularning kompozit tizimlarini ishlab chiqishdir. Masalan, faollashtirilgan bentonit pigmentlar va fosfolipidlarni yaxshi adsorbsiya qilsa, aktivlangan ko‘mir oksidlanish mahsulotlari va ayrim hid beruvchi moddalarni yutishda samarali bo‘lishi mumkin. Silikagel yoki guruch qobig‘i asosidagi kremniyli adsorbentlar esa sovun qoldiqlari, fosforli birikmalar va qutbli aralashmalarni kamaytirishda foydali bo‘lishi mumkin. Shu bois mahalliy xomashyolardan tayyorlangan adsorbentlarni yuqori samarador tizimga aylantirishda “bentonit + biomassa kuli”, “bentonit + aktivlangan ko‘mir”, “kaolin

ISSN 3030-3907

+ kremniyli adsorbent”, “mahalliy gil + organik modifikator” kabi kompozitsiyalarni o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O‘simlik moylarini oqartirish texnologiyasini takomillashtirishda adsorbent miqdori eng muhim texnologik parametrlar qatoriga kiradi. Adsorbent miqdorining oshishi rang beruvchi moddalarning ko‘proq yutilishiga yordam beradi, biroq ortiqcha adsorbent yog‘ning ko‘proq ushlanib qolishiga, filtrlash tezligining kamayishiga va ishlab chiqarish tannarxining ortishiga olib keladi. Shu sababli samaradorlikni faqat rang pasayishi bilan emas, balki “oqartirish darajasi — yog‘ yo‘qotilishi — filtrlanish tezligi — oksidlanish barqarorligi — adsorbent narxi” mezonlari asosida baholash lozim. Ilmiy adabiyotlarda optimal adsorbent miqdori moy turi, dastlabki rang ko‘rsatkichi, fosfor miqdori, xlorofill va karotinoidlar darajasi hamda adsorbentning faolligi bilan bog‘liq ekani qayd etiladi [7].

Jarayon harorati ham ikki tomonlama ta’sirga ega. Harorat ortishi moyning qovushqoqligini kamaytiradi, diffuziyani tezlashtiradi va adsorbsion muvozanatga erishishni osonlashtiradi. Biroq haddan tashqari yuqori harorat oksidlanish jarayonlarini kuchaytirishi, tokoferollar parchalanishi va noxush yon reaksiyalarni jadallashtirishi mumkin. Shu sababli ko‘plab tadqiqotlarda 80–110 °C oralig‘i o‘simlik moylarini oqartirish uchun amaliy jihatdan maqbul diapazon sifatida ko‘riladi, lekin aniq harorat moy turi va adsorbentning tabiati bo‘yicha aniqlanadi. Navbahor bentoniti bo‘yicha ishda paxta moyi uchun 85 °C va 30 daqiqa sharoiti optimal deb ko‘rsatilgani mahalliy xomashyo asosidagi tadqiqotlarda individual texnologik rejim zarurligini tasdiqlaydi [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mahalliy xomashyolardan adsorbent tayyorlashda faqat oqartirish natijasini emas, balki adsorbentning oziq-ovqat sanoatida xavfsiz qo‘llanishini ham baholash kerak. Mineral adsorbentlarda og‘ir metallar, erkin mineral kislota qoldiqlari, suvda eruvchan tuzlar va mayda dispers zarrachalar nazorat qilinishi zarur. Biosorbentlarda esa kul tarkibi, eruvchan mineral komponentlar, mikrobiologik xavfsizlik, organik qoldiqlar va hid beruvchi moddalar darajasi tekshirilishi lozim. Shuning uchun yangi adsorbentlar uchun XRD, FTIR, SEM, BET, termogravimetrik tahlil, pH, namlik, kation almashinuv sig‘imi, zarracha o‘lchami, filtrlanish tezligi va yog‘ ushlanishi kabi fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar majmuaviy aniqlanishi kerak.

Ishlatilgan oqartiruvchi adsorbentlar — spent bleaching earth — masalasi ham ekologik va iqtisodiy jihatdan dolzarbdir. Adabiyotlarda SBE o‘simlik moyi sanoatida hosil bo‘ladigan muhim qattiq chiqindi sifatida baholanadi; u tarkibida qolgan moy tez oksidlanishi, hatto o‘z-o‘zidan qizish va yong‘in xavfini yuzaga keltirishi mumkin [13]. Abdelbasir va hammualliflar SBE ni poligonlarga tashlash ekologik jihatdan noqulay va iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanini, uni biodizel, yoqilg‘i briketlari, bioo‘g‘it, oqova suvlarni tozalash sorbenti yoki qurilish

ISSN 3030-3907

materiallari ishlab chiqarishda qayta ishlash mumkinligini ko‘rsatganlar. Demak, mahalliy adsorbent texnologiyasini ishlab chiqishda ishlatilgan adsorbentni qayta ishlash yoki xavfsiz utilizatsiya qilish bosqichi ham loyiha tarkibiga kiritilishi lozim.

Mavjud ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish mahalliy xomashyo asosida arzon va yuqori samarali adsorbentlar olish yo‘nalishida bir nechta muhim ilmiy vazifalarni ko‘rsatadi. Birinchidan, O‘zbekiston bentonitlari, kaolinlari, kremniyli chiqindilari va qishloq xo‘jaligi qoldiqlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari tizimli taqqoslanishi kerak. Ikkinchidan, har bir xomashyo turi uchun faollashtirish usuli — kislota, termik, ishqoriy, tuzli yoki kompozit modifikatsiya — ilmiy asosda tanlanishi lozim. Uchinchidan, adsorbent samaradorligi faqat laboratoriya darajasida rang o‘zgarishi orqali emas, balki sanoatga yaqin sharoitda filtrlanish, yog‘ ushlanishi, oksidlanish barqarorligi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan baholanishi zarur. To‘rtinchidan, ishlab chiqilgan adsorbentlarning oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik xavfsizligi va qayta ishlash imkoniyatlari kompleks baholanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘simlik moylarini oqartirish texnologiyasini takomillashtirishda mahalliy xomashyolardan tayyorlangan adsorbentlar muhim ilmiy-amaliy zaxira hisoblanadi. Bentonite asosidagi faollashtirilgan gillar hozirgi kungacha eng samarali va sanoatga yaqin adsorbentlar bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi chiqindilaridan olingan biosorbentlar va ularning mineral adsorbentlar bilan kompozitsiyalari tannarxni pasaytirish, import o‘rnini bosish va ekologik barqarorlikni oshirish imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda mahalliy bentonitlarning paxta, kungaboqar, maxsar va boshqa moylarni oqartirishda ijobiy natijalari qayd etilgan bo‘lsa-da, ularning sanoat miqyosida qo‘llanishi uchun adsorbent tarkibi, faollashtirish rejimi, oqartirish sharoiti, filtrlanish xususiyati va ishlatilgan adsorbent utilizatsiyasi bo‘yicha yanada chuqur tadqiqotlar talab etiladi. Shu jihatdan mazkur mavzu oziq-ovqat sanoati, kimyoviy texnologiya va ekologik xavfsizlik kesishmasida dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gharby S. Refining Vegetable Oils: Chemical and Physical Refining // The Scientific World Journal. — 2022. — Article ID 6627013. DOI: 10.1155/2022/6627013.
2. Berbesi R. Optimization of Bleaching Process // AOCS Lipid Library / AOCS Resource. — 2026.
3. Hussin F., Aroua M.K., Daud W.M.A.W. Textural characteristics, surface chemistry and activation of bleaching earth: A review // Chemical Engineering Journal. — 2011. — Vol. 170, No. 1. — P. 90–106. DOI: 10.1016/j.cej.2011.03.065.

ISSN 3030-3907

4. Didi M.A., Makhoukhi B., Azzouz A., Villemin D. Colza oil bleaching through optimized acid activation of bentonite: A comparative study // Applied Clay Science. — 2009. — Vol. 42, No. 3–4. — P. 336–344. DOI: 10.1016/j.clay.2008.03.014.
5. Foletto E.L., Volzone C., Porto L.M. Clarification of cottonseed oil: How structural properties of treated bentonites by acid affect bleaching efficiency // Latin American Applied Research. — 2006. — Vol. 36. — P. 37–40.
6. Foletto E.L., Colazzo G.C., Volzone C., Porto L.M. Sunflower oil bleaching by adsorption onto acid-activated bentonite // Brazilian Journal of Chemical Engineering. — 2011. — Vol. 28, No. 1. — P. 169–174. DOI: 10.1590/S0104-66322011000100018.
7. Škevin D., Domijan T., Kraljić K., Gajdoš J., Neđeral S., Obranović M. Optimization of bleaching parameters for soybean oil // Food Technology and Biotechnology. — 2012. — Vol. 50, No. 2. — P. 199–207.
8. Ismoilova M.A., Salixanova D.S., Sadullaeva M.S., Ruzmetova D.T., Agzamova F.N. Obtaining clay adsorbents for bleaching vegetable oil based on bentonites of Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. — 2021. — Vol. 101, No. 9. — P. 780–786. DOI: 10.15863/TAS.2021.09.101.112.
9. Boyjanov N., Boyjanov I., Khamidova M., Serkayev Q. Studying adsorption characteristics of “Navbahor” alkaline bentonite in bleaching cotton oil // Universum: Technical Sciences. — 2023. — No. 6(111). DOI: 10.32743/UniTech.2023.111.6.15618.
10. Sherko‘ziyeva Sh., Nazirova R., Salikxanova D.S. Purification of vegetable oil using clay adsorbents in adsorption processes // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. — 2025. — Vol. 6, No. 1.
11. Abdi E., Gharachorloo M., Ghavami M. Investigation of using egg shell powder for bleaching of soybean oil // LWT — Food Science and Technology. — 2021. — Vol. 140. — Article 110859. DOI: 10.1016/j.lwt.2021.110859.
12. Sepehr Z.F., Gharachorloo M., Yousefi Sh. Investigation of soybean oil bleaching by using walnut shell // Journal of Nuts. — 2020. — Vol. 11, No. 2. — P. 169–177.
13. Abdelbasir S.M., Shehab A.I., Abdel Khalek M.A. Spent bleaching earth; recycling and utilization techniques: A review // Resources, Conservation & Recycling Advances. — 2023. — Vol. 17. — Article 200124. DOI: 10.1016/j.rcradv.2022.200124.
14. Kaynak G., Ersoz M., Kara H. Investigation of the properties of oil at the bleaching unit of an oil refinery // Journal of Colloid and Interface Science. — 2004. — Vol. 280. — P. 131–138.

15. Topkafa M., Ayyildiz H.F., Kara H. Role of different bleaching earths for sunflower oil in a pilot plant bleaching system // Polish Journal of Food and Nutrition Sciences. — 2013. — Vol. 63, No. 3. — P. 147–154.

ISSN 3030-3907

UDK: 582.736.3:581.9:581.4

ASTRAGALUS CAMPYLORRHYNCHUS O‘SIMLIGINING TARQALISHI VA BOTANIK TAVSIFI

D.D.G‘ulomjonov
QDU 3-kurs tayanch doktoranti.
ORCID 0009-0003-7680-6297
D.R.Tojiboyev
QDU Kimyo va ekologiya kafedrasi o‘qituvchisi (PhD)
ORCID 0009-0005-28 3-7940
V.U.Xo‘jayev
QDU Kimyo va ekologiya kafedrasi professori.
ORCID 0009-0001-9922-3989

Annotatsiya. *Astragalus* L. (Fabaceae) turkumi Eron–Turon floristik mintaqasida keng tarqalgan va taksonomik jihatdan murakkab guruh hisoblanadi. Markaziy Osiyoda uchraydigan ayrim turlar, jumladan *Astragalus campylorrhynchus* Fisch. & C.A. Mey., ning tarqalishi va biologik xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston hududida o‘tkazilgan dala kuzatuvlari va floristik manbalar asosida ushbu turning tarqalishi, morfologik va ekologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Natijalarga ko‘ra, *A. campylorrhynchus* tog‘oldi hududlarda keng tarqalgan bir yillik, shoxlangan poyali, binafsha rang gulli va cho‘ziq dukkakli o‘simlik bo‘lib, lyoss va toshloq tuproqlarda o‘sadi hamda erta bahorda gullab-mevalaydi. Olingan ma’lumotlar turning keyingi fitokimyoviy va biologik tadqiqotlari uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: *Astragalus*, Fabaceae, morfologiya, ekologiya, hayotiy shakl.

Аннотация. Род *Astragalus* L. (Fabaceae) широко распространён в Ирано–Туранском флористическом регионе и относится к таксономически сложным группам растений. Некоторые виды, произрастающие в Центральной Азии, в том числе *Astragalus campylorrhynchus* Fisch. & C.A. Mey., остаются недостаточно изученными с точки зрения распространения и биологических особенностей. Настоящее исследование направлено на изучение распространения, морфологических и экологических характеристик данного вида на основе полевых наблюдений, проведённых на территории Узбекистана, и анализа флористических источников. Установлено, что *A. campylorrhynchus* широко распространён в предгорных районах и представляет собой однолетнее растение с разветвлённым стеблем, фиолетовыми цветками и удлинёнными бобами, произрастающее на лёссовых и каменистых почвах и характеризующееся ранневесенним цветением и плодоношением. Полученные данные создают научную основу

для дальнейших фитохимических и биологических исследований данного вида.

Ключевые слова: *Astragalus*, Fabaceae, морфология, экология, жизненная форма.

Mamlakatimizda qabul qilingan klassifikatsiya bo‘yicha 100 kVt dan 30000 kVt gacha bo‘lgan, hamda ish g‘ildiragi diametri 3 metrgacha va bir gidroagregatning quvvati 10000 kVt gacha bo‘lganlar kichik GESlar tarkibiga kiritilgan.[1]

ISSN 3030-3907




a) **b)**




g) **d)**

1-rasm. MikroGESning turi va undan foydalanish yo‘li

MikroGESning asosiy qismlari

- Suv olish inshooti;
- Suv kanali yoki quvur;
- Turbina;
- Generator;
- Boshqaruv tizimi;
- Elektr energiyasini uzatish liniyasi;
- Himoya va nazorat qurilmalari.

ISSN 3030-3907



a) **b)**

g) **d)**

2 – rasm. Respublikamizning tog‘li va tog‘ oldi hududlariga Mini – Geslarning qurulish. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidan Sarchashma qishlog‘dan olingan lavha.

Hozirgi vaqtda barcha mamlakatlar uchun kichik GESning umumiy qabul qilingan konsepsiyasi mavjud emas. Biroq, ko‘pgina mamlakatlarda uning o‘rnatilgan quvvati bunday GESning asosiy xarakteristikasi sifatida qabul qilinadi. Kichik, qoida tariqasida, quvvati 10 MVt gacha (ba'zi mamlakatlarda 50 MVtgacha) bo‘lgan GESlarni o‘z ichiga oladi. Kichik gidroenergetika yirik GESlarning ko‘pgina kamchiliklaridan xoli bo‘lib, ayniqsa, kichik suv oqimlaridan foydalanganda elektr energiyasini ishlab chiqarishning eng tejamli va ekologik toza usullaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Kichik, mikro yoki nano GESlar, bir tomondan, yirik GESning afzalliklarini, ikkinchi tomondan, markazlashtirilmagan energiya ta'minoti imkoniyatlarini birlashtiradi. Ular yirik GESlarning ko‘pgina

ISSN 3030-3907

kamchiliklariga ega emas, xususan: qimmat uzatishlar, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko‘rsatish bilan bog‘liq muammolar.[2]

Mini GESlardan foydalanishning afzalliklari: Kichik gidroelektrostantsiyalar ushbu uskunani tobora ommalashtirgan qator afzalliklarga ega. Avvalo, atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari nuqtai nazaridan tobora muhim bo‘lib borayotgan mezon - mini GESlarning ekologik xavfsizligini ta'kidlash kerak. Kichik GESlar suvning xususiyatlariga ham, sifatiga ham zararli ta'sir ko‘rsatmaydi. Kam quvvatli GES o‘rnatilgan suv maydonlaridan baliqchilik uchun ham, aholi punktlarini suv bilan ta'minlash manbai sifatida ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, kichik GESlarning ishlashi uchun katta suv omborlariga ehtiyoj qolmaydi. Ular kichik daryolar va hatto daryolar oqimining energiyasidan foydalangan holda ishlashlari mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik borasida mikro va mini GESlar bu yerda ham ko‘plab afzalliklarga ega. Stansiyalar bilan ishlab chiqilgan zamonaviy texnologiyalar, ishlatish oson, ular to‘liq avtomatlashtirilgan. Shunday qilib, asbob-uskunalar odamning mavjudligini talab qilmaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, kichik GESlar tomonidan ishlab chiqarilgan oqimning sifati kuchlanish va chastota bo‘yicha ham GOST talablariga javob beradi. Shu bilan birga, mini GESlar ham avtonom, ham elektr tarmog‘ining bir qismi sifatida ishlashi mumkin. Kichik GESlar haqida gapirganda, ularning kamida 40 yillik ishining to‘liq resursi sifatida afzalligini ta'kidlash kerak. Va eng muhimi, kichik o‘lchamdagi energiya ob'ektlari tegishli hududni suv bosishi va katta moddiy zarar bilan yirik suv omborlarini tashkil qilishni talab qilmaydi.

Eng muhim iqtisodiy omillardan biri gidrotexnika resurslarining abadiy yangilanishidir. Kichik GESlardan foydalanishdan tom ma'nodagi foydani hisoblaydigan bo‘lsak, ular tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi iste'molchi issiqlik elektr stansiyalaridan oladigan elektr energiyasidan deyarli 4 barobar arzon ekani ma'lum bo‘ladi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda gidroelektrostantsiyalar elektr energiyasini talab qiladigan sanoat tarmoqlarini energiya bilan ta'minlash uchun tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Unutmaylik, kichik GESlar hech qanday yoqilg‘i sotib olishni talab qilmaydi. Bundan tashqari, ular elektr energiyasini ishlab chiqarishning nisbatan sodda texnologiyasi bilan ajralib turadi, buning natijasida gidroelektrostantsiyalarda quvvat birligi uchun mehnat xarajatlari issiqlik elektr stantsiyalariga qaraganda deyarli 10 baravar kam.[2]

ISSN 3030-3907



3 – rasm. Respublikamizning tog‘li va tog‘ oldi hududlariga Mini – Geslarning qurulish. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidan Sarchashma qishlog‘dan olingan lavha.

Mini GESlardan foydalanishning kamchiliklari: Yuqorida Mini – Geslarning afzaliklari bilan birga ular kamchiliklardan xoli emas. Respublikamizning tog‘li hududlari bahor oylarida ko‘p yomg‘rgarchilik hisobiga sel kelish xafidan xoli emas. Shuni ta’qidlash joyizki kutilayotgan bunday holatlar daryo o‘zanlarida, soylarda qurilgan Mini – Geslarning ozanlarini o‘zgartirib tashlashlab , ularga jiddiy talofat yetqazadi. Respublikamiz to‘g‘ va tog‘ oldi hudud aholisi dehqonchilik bilan shug‘ullanish hisobiga yozgi mavsumda daryo va soylarni suvini qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga ishlatish hisobiga Mini – Geslarning ishlash holatini o‘zgartirib yuboradi.

Xulosa. Aholi sonini o‘sib borish bilan bir qatorda elektr energiyaga ehtiyoj tobora kun sayin oshib bormoqda. Shu o‘rinda aytish joyizki ekologik toza, foydali ish koeffitsenti (η) yuqori bo‘lgan kam xarajat Mini va Kichik Geslardan foydalanish avtonom energiya va elektr tarmog‘ini uzluksiz energiya bilan ta’minlashga hissa qo‘shadi. Geografik qulay joylashgan tog‘ va tog‘ oldi hududlariga Mini va kichik GESlardan foydalanish elektr energiya ishlab chiqarishini oshib borishiga Respublikamizning uzoq cheka hududlarini elektr energiya bilan ta’minlashga hissa qo‘shadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov R.Ch., Rafiqova G.R., Usmanov E.G., Ro‘zinazarov M.R. “Yo‘nalishga kirish”. O‘quv qo‘llanma. – T.: ToshDTU, 2020. – 234 b. [1]
2. Mirzayev.S.Z, Azimov A.M, Abobakirov R.A, Axmadjonov.R.R. Mikro va kichik gidroelektrostansiyalardan foydalanish va ularning afzalliklari. Development and innovations in science International scientific – online conference. Netherlands - 2026. 104-110 b [2]
3. Mixaylov L.P. Kichik gidroenergetika.

4. Yunusov.R.F, Rahmonov.Sh.S, Shomurotov A.O, G‘aniboyev R.J, Raximov A.A. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning kelajak samaradorligi Development of science MAY 2026 Issue - 5, VOLUME – 6 ISSN 3030 -3907

5. Analysis of the use of modern monorail feed distribution vehicles in small livestock farms of our republic. Yunusov Rustem Faikovich, Rahmonov Shahobiddin Safaralievich, Shomurotov Akobir Olim o‘g‘li, G‘aniboyev Rustam Jahongir o‘g‘li O‘zbekiston agrar fan xabarnomasi Ilmiy-amaliy jurnal Universitet ko‘chasi 2-uy, ToshDAU.360-364 betlar, Toshkent - 2025

FAZAVIY O‘TUVCHI MATERIALLAR INTEGRATSIYALANGAN QUYOSH HAVOSI ISITGICHLARINING ENERGETIK SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

Temirov Sohib Amonovich
Buxoro davlat universiteti “Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika“ kafedrasi tayanch doktoranti
Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti.
E-mail: sohibamonovich@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada quyosh havosi isitgichlari (QHI) va faza o‘zgaruvchi materiallar (FO‘M) sohasidagi 2016–2026 yillar oralig‘ida nashr etilgan 14 ta yetakchi ilmiy maqola tahlil qilingan. Har bir maqolada qo‘llanilgan eksperimental qurilma tuzilishi, tadqiqot usuli, asosiy natijalar va erishilgan issiqlik samaradorligi qiyoslangan. Cosinus o‘xshashlik matritsasi yordamida maqolalar orasidagi metodologik yaqinlik aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, FO‘M integratsiyasi QHI issiqlik samaradorligini o‘rtacha 15–25% ga oshiradi va isitish davomiyligini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: Quyosh havo isitgichi (QHI), Faza o‘zgaruvchi material (FO‘M), Issiqlik samaradorligi, Nano-FO‘M, Latent issiqlik saqlash, Double-pass QHI, U-to‘lqinli absorber.

Аннотация. В данной статье анализируются 14 ведущих научных статей, опубликованных в области солнечных воздухонагревателей (СВН) и материалов с фазовым переходом (ФПМ) в период с 2016 по 2026 год. Сравниваются экспериментальная установка, метод исследования, основные результаты и достигнутая тепловая эффективность, использованные в каждой статье. Методологическое сходство между статьями определяется с помощью матрицы косинусного сходства. Результаты показывают, что интеграция ФПМ увеличивает тепловую эффективность СВН в среднем на 15–25% и продлевает время нагрева.

Ключевые слова: Солнечный воздухонагреватель (СВН), Материал с фазовым переходом (ФПМ), Тепловая эффективность, Нано-ФПМ, Аккумулирование скрытой теплоты, Двухпроходной СВН, U-образный поглотитель.

Annotation. This article analyzes 14 leading scientific articles published in the field of solar air heaters (QHI) and phase change materials (FO‘M) between 2016–2026. The experimental setup, research method, main results, and achieved thermal efficiency used in each article are compared. Methodological similarity between articles is determined using the cosine similarity matrix. The results show that FO‘M integration increases the thermal efficiency of QHI by an average of 15–25% and extends the heating duration.

ISSN 3030-3907

Keywords: Solar Air Heater (QHI), Phase Change Material (FO‘M), Thermal efficiency, Nano-FO‘M, Latent heat storage, Double-pass QHI, U-wave absorber.

1. KIRISH.

Quyosh energiyasidan foydalanish zamonaviy energetika tizimlarining asosiy ustunlaridan biriga aylandi. IRENA ma'lumotlariga ko‘ra, 2025 yilga kelib dunyo miqyosida o‘rnatilgan quyosh energetika quvvati 2 TW dan oshib ketdi. Bu o‘sish quyosh termik tizimlarini ham o‘z ichiga oladi, xususan quyosh havosi isitgichlari (QHI) qurilish, quritish, issiqxona isitish va sanoat jarayonlarida keng qo‘llanilmoqda [1].

QHI qurilmalarining asosiy kamchiligi-quyosh nurlanishi yo‘q bo‘lgan davrlarda (kechasi yoki bulutli kunlarda) ishlash imkoniyatining pastligi. Bu muammoni hal etishda faz o‘zgaruvchi materiallar (FO‘M) muhim rol o‘ynaydi. FO‘M kun davomida quyosh issiqligini latent issiqlik shaklida saqlaydi va kechasi yoki kerak bo‘lganda bu issiqlikni havoga qaytaradi[3].

Hozirgi kunda QHI+FO‘M tizimlarida turli xil FO‘M turlari (parafin mumi, yog‘ kislotalari, tuzlar, nano-FO‘M) va turli xil qurilma konfiguratsiyalari (tekis plastinali, ikki o‘tishli, U-to‘lqinli, spiral finli) tadqiq etilmoqda. Ushbu maqolada shular orasidagi eng muhim va ta'sirchan tadqiqotlar tahlil qilinadi, eksperimental qurilmalar sxematik ko‘rinishda taqdim etiladi va issiqlik samaradorligining yillar davomidagi o‘zgarishi grafik shaklida ko‘rsatiladi [5].

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI.

2.1. Adabiyot tanlash mezonlari

Ushbu tahlil uchun quyidagi mezonlar asosida maqolalar tanlab olindi: QHI + FO‘M tizimiga oid bo‘lgan maqolalar (tajribaviy yoki raqamli), 2016–2026 yillar oralig‘ida Scopus, Web of Science indekslangan jurnallarda nashr etilgan. Issiqlik samaradorligi, issiqlik energiyasi saqlash ko‘rsatkichlari berilgan va eksperimental qurilma chizmasi yoki sxematik tavsifi mavjud.

2.2. Cosinus o‘xshashlik tahlili


Maqolalar o‘rtasidagi metodologik va texnik yaqinlikni aniqlash uchun cosinus o‘xshashlik (cosine similarity) usuli qo‘llanildi. Har bir maqola uchun 10 ta xususiyat (feature) vektori tuzildi:

1. Tekis plastinali QHI (flat-plate)
2. Ikki o‘tishli QHI (double-pass)
3. V-to‘lqinli absorber plastina
4. Fin (qanotli) tuzilma
5. Nano-FO‘M
6. Paraffin asosidagi FO‘M
7. CFD (raqamli gidrodinamika) usuli
8. Tajribaviy usul

ISSN 3030-3907

9. Bino isitish maqsadi
10. Quritish (drying) maqsadi

Quyida ko‘rsatilgan matritsa tahlil qilingan 12 ta maqola o‘rtasidagi texnologik va metodologik yaqinlikni cosinus o‘xshashlik (cosine similarity) yordamida ko‘rsatadi. Qiymat 1.0 ga yaqin bo‘lishi tadqiqot usullari va qurilma konfiguratsiyalarining o‘xshashligini bildiradi.



1-rasm. Maqolalar o‘rtasidagi cosinus o‘xshashlik matritsasi

Matritsa tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Brahma [7] va Ata [13] (sim=0.94)-ikkalasi ham tekis plastinali QHI + paraffin mumi FO‘M tajribaviy usulini qo‘llagan. Salih [2] va Hedau[8] (sim=0.89)-ikki o‘tishli QHI + CFD usuli. Ameri [4] va Ganeshkumar [9] (sim=0.67)-V-to‘lqinli absorber, lekin farqli FO‘M. Rehman umumiy o‘xshashlik past (0.35–0.55)-unikal spiral fin + DL kombinatsiyasi.

3. MAQOLALAR TAHLILI VA EKSPERIMENTAL QURILMALAR.

Ushbu tadqiqotda Khadraoui va boshqalar tekis plastinali quyosh havosi isitgichiga faz o‘zgaruvchi material (paraffin mumi, erish harorati Tm = 46°C) integratsiya qilishning energetik samaradorligini tadqiq etdi. Tunisda olib borilgan tajribaviy o‘lchovlar asosida FO‘M bilan va FO‘Msiz qurilma qiyoslandi. FO‘M qatlami qo‘shilganda chiqish havo harorati kun davomida 12°C ga yuqori bo‘lgan. Kechki soatlarda (18:00–22:00) FO‘M saqlagan issiqlikni havoga qaytargan. Issiqlik samaradorligi FO‘Msiz 38% dan FO‘M bilan 55% ga oshgan [1].


ISSN 3030-3907

Hedau va Singal ikki o‘tishli QHI qurilmasiga sun'iy qo‘pollik (artificial roughness) va FO‘M asosidagi TES tizimini birlashtirib ANSYS Fluent dasturida modellashtirdi. Nu soni va bosim yo‘qotishiga asosiy e'tibor qaratildi. Sun'iy qo‘pollik issiqlik uzatish koeffitsientini 35% oshirdi. Bosim yo‘qotishi 12% ortdi (qabul qilinadigan daraja). Termo-gidravlik ishlash parametri (THPP) 1.8 qiymatiga erishdi. η = 70% [8].

Ata va Erkam Turkiyada tekis plastinali QHI qurilmasiga paraffin mumi FO‘M qo‘shib, issiqlik saqlash va chiqarish tsikllarini to‘liq tajribaviy tarzda o‘rganishdi. Turli qoplama materiallar sinab ko‘rildi. FO‘M zaryadlash vaqti tez radiatsiya o‘zgarishida ham barqaror kechdi. Razryadlash davrida chiqish havo harorati 7.5°C da barqaror ushlab turildi. η = 82% kuzatildi. Qurilma xarajatlari tahlili ham amalga oshirildi [13].

4. FO‘M turiga qarab samaradorlik taqqoslamasi

Turli FO‘M materiallarining issiqlik samaradorligiga ta'siri quyida ko‘rsatilgan. Nano-zarrachalar (Al_2O_3, TiO_2) bilan boyitilgan FO‘M eng yuqori ko‘rsatkichni beradi (2-rasm).



2-rasm. Turli FO‘M turlaridagi o‘rtacha issiqlik samaradorligi taqqoslamasi

5. XULOSA

QHI qurilmalarida FO‘M integratsiyasi issiqlik samaradorligini o‘rtacha 15–25% ga oshiradi va isitishning davomiyligini sezilarli uzaytiradi. Ikki o‘tishli (double-pass) QHI konfiguratsiyasi tekis plastinali qurilmaga nisbatan 8–12% ga

ISSN 3030-3907

yuqori issiqlik samaradorligini beradi. U-to‘lqinli absorber plastina turbulentsiyani oshirib, konvektiv issiqlik uzatishni 18–35% yaxshilaydi.

Nano-zarrachalar (Al_2O_3, TiO_2, grafen) FO‘M issiqlik o‘tkazuvchanligini 2–4 barobar oshirishi isbotlangan. CFD va Sun'iy intellekt (ML, LSTM, ANFIS) usullari qurilma geometriyasini optimallashtirish va issiqlik samaradoeligini bashorat qilishda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

2025–2026 yillarga kelib issiqlik samaradorligi maksimal 80–85% ga yetdi – bu QHI sohasidagi muhim texnologik erishilmadir. Kelajak tadqiqotlarda: bio-asosli FO‘M (yog‘ kislotalari), eritmali tuz (FO‘M+nanofluid), va gibrid PVT-QHI tizimlari yuqori salohiyat ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Khadraoui A.E., Bouadila S., Kooli S., Guizani A., Farhat A. Solar air heater with phase change material: An energy analysis and a comparative study. Applied Thermal Engineering, vol. 107, pp. 1057–1064, 2016. DOI: 10.1016/j.applthermaleng.2016.07.004
2. Salih S.M., Jalil J.M., Najim S.E. Experimental and numerical analysis of double-pass solar air heater utilizing multiple capsules FO‘M. Renewable Energy, vol. 143, pp. 1053–1066, 2019. DOI: 10.1016/j.renene.2019.05.050
3. Raj A.K., Srinivas M., Jayaraj S. Transient CFD Analysis of Macro-Encapsulated Latent Heat Thermal Energy Storage Containers Incorporated within Solar Air Heater. International Journal of Heat and Mass Transfer, vol. 156, p. 119896, 2020. DOI: 10.1016/j.ijheatmasstransfer.2020.119896
4. Ameri M., Sardari R., Farzan H. Thermal performance of a V-Corrugated serpentine solar air heater with integrated FO‘M: A comparative experimental study. Renewable Energy, vol. 171, pp. 391–400, 2021. DOI: 10.1016/j.renene.2021.02.113
5. Kumar A., Bhandari P., Rawat K.S. Numerical Simulation of Solar Air Heater using Paraffin Wax-Aluminum Compound as Phase Changing Material. International Journal of Sustainable Development and Planning, vol. 3(2), pp. 164–170, 2021.
6. Palacio M., Ramírez C., Carmona M. Effect of phase-change materials in the performance of a solar air heater. Solar Energy, vol. 247, pp. 385–396, 2022. DOI: 10.1016/j.solener.2022.10.046
7. Brahma B., Kumar A., Chandra D. Design and performance analysis of solar air heater with phase change materials. Journal of Energy Storage, vol. 61, p. 106809, 2023. DOI: 10.1016/j.est.2023.106809
9. Hedau A., Singal S.K. Study on the thermal performance of double pass solar air heater with FO‘M-based thermal energy storage system. Journal of Energy Storage, vol. 73, p. 109018, 2023. DOI: 10.1016/j.est.2023.109018

10. Ganeshkumar P., Vigneswaran V.S., Murugan P., et al. Exploring the thermal performance of a solar air heater with a V-corrugated and shot-blasted absorber plate comprising nano-enhanced phase change materials. Journal of Energy Storage, vol. 77, p. 109955, 2024. DOI: 10.1016/j.est.2023.109955
11. Rehman T., Dinh D., Sajawal M. Smart optimization and investigation of a FO‘Ms-filled helical finned-tubes double-pass solar air heater: An experimental data-driven deep learning approach. Thermal Science and Engineering Progress, vol. 49, p. 102433, 2024. DOI: 10.1016/j.tsep.2024.102433
12. Mohammed M., Saeed A., Hameed H.G., et al. Experimental Investigation on Thermal Performance of Solar Air Heater using Nano-FO‘M. Journal of Advanced Research in Fluid Mechanics and Thermal Sciences, vol. 1(1), pp. 83–97, 2024.
13. Hap N.V., Nhan P.T., Phu N.M. Numerical and experimental investigation of the solar air heater with latent heat storage and fin. Scientific Reports (Nature Research), pp. 1–17, 2025.
14. Ata I., Erkam Y. Experimental analysis of a phase change material (FO‘M) enhanced solar air heater for thermal energy storage. Engineering Science and Technology, an International Journal, vol. 70, p. 102163, 2025. DOI: 10.1016/j.jestch.2025.102163
15. Embarek N., Guellil H., Korti A.I.N., Sulimieh I. An experimental investigation on the influence of auxiliary heater position and wavy fin inclination on the performance of a novel hybrid solar air heater with

ISSN 3030-3907

PAVLOVNIA DARAXTI CHIQINDILARI ASOSIDA FAOLLASHTIRILGAN UGLERODLI SORBENTLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISH

Jumayeva D.J.
O‘zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti
Axrorova R.O.
Toshkent kimyo-texnolgiya instituti
Raxmatullayeva N.T.
Toshkent kimyo-texnolgiya instituti
Zaripbayev K.Sh.
O‘zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti
Haydarov B.H.
O‘zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Pavlovniya Tomentoza (Paulownia tomentosa) daraxti chiqindilari asosida olingan faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning funksional xususiyatlari infraqizil spektroskopiya (FTIR) usuli yordamida tadqiq qilingan. Tadqiqotlarda Pavlovniya daraxtining yog‘och chiqindilari asosida an’anaviy va noan’anaviy usullarda faollashtirilgan uglerodli sorbentlar olinib, ularning sirt kimyoviy tabiati va funksional guruhlar tarkibi o‘rganildi. Tadqiqotda Pavlovniya daraxti chiqindilari asosida yuqori samarali faollashtirilgan uglerodli adsorbentlarning fizik-kimyoviy xossalaridan IQ-spektr tadqiqoti olib borilgan. Adsorbentlarning funksional xususiyatlari infraqizil spektroskopiya (FTIR) usullar yordamida tadqiq etilganda adsorbentlarning rivojlangan g‘ovak tizimga hamda adsorbsiya markazlari vazifasini bajaruvchi funksional guruhlarga ega ekanligini tasdiqladi. IK-spektrlar tahlili natijasida sorbentlar sirtida gidroksil (–OH), karboksil (–COOH), karbonil (C=O), efir (C–O–C) va aromatik tuzilishga tegishli funksional guruhlar mavjudligi aniqlandi. Faollashtirish jarayoni davomida uglerod strukturasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar hamda funksional guruhlar miqdorining o‘zgarishi sorbentlarning sorbsion xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatildi. Olingan natijalar faollashtirish usuli va texnologik sharoitlar sorbent sirtidagi funksional markazlarning shakllanishiga bevosita ta’sir qilishini tasdiqladi. Xususan, mikroto‘lqinli ta’sirlashuv asosida faollashtirilgan namunalarda sorbsion jarayonlarda ishtirok etuvchi kislorod saqlovchi funksional guruhlar nisbatan yaxshi rivojlanganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari Pavlovniya Tomentoza chiqindilari asosida olingan uglerodli sorbentlarning sirt xususiyatlarini baholash, ularning sorbsion mexanizmlarini tushuntirish va kelgusida gaz hamda suyuq muhitlarni tozalash jarayonlarida qo‘llash imkoniyatlarini asoslash uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi mahalliy biomassa chiqindilaridan foydalanish asosida import o‘rnini

ISSN 3030-3907

bosuvchi, yuqori adsorbsion xususiyatlarga ega sorbent materiallar yaratishda ularning fizik-kimyoviy xarkateristikalaridan biri funksional xususiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Pavlovniya Tomentoza, faollashtirilgan uglerod, funksional guruhlar, infraqizil spektroskopiya, FTIR, gidroksil guruhi, karboksil guruhi, karbonil guruhi, sorbent, sirt kimyosi.

Аннотация. В данной статье исследованы функциональные свойства активированных углеродных сорбентов, полученных на основе отходов древесины Павловнии войлочной (Paulownia tomentosa), методом инфракрасной спектроскопии (FTIR). В ходе исследований на основе древесных отходов павловнии были получены активированные углеродные сорбенты традиционными и нетрадиционными методами активации, а также изучены химическая природа их поверхности и состав функциональных групп. Для оценки физико-химических свойств высокоэффективных активированных углеродных адсорбентов, полученных из отходов павловнии, проведены исследования методом ИК-спектроскопии. Результаты FTIR-анализа подтвердили наличие у адсорбентов развитой пористой структуры и функциональных групп, выполняющих роль активных центров адсорбции. Анализ ИК-спектров показал присутствие на поверхности сорбентов гидроксильных (–OH), карбоксильных (–COOH), карбонильных (C=O), эфирных (C–O–C) и ароматических функциональных групп. Установлено, что изменения углеродной структуры и количественного содержания функциональных групп в процессе активации оказывают существенное влияние на сорбционные свойства материалов. Полученные результаты подтверждают, что способ активации и технологические условия непосредственно влияют на формирование функциональных центров на поверхности сорбента. В частности, образцы, активированные с использованием микроволнового воздействия, характеризуются более развитой системой кислородсодержащих функциональных групп, участвующих в процессах сорбции. Результаты исследования имеют важное научное значение для оценки поверхностных свойств углеродных сорбентов, полученных из отходов Paulownia tomentosa, объяснения механизмов сорбции и обоснования перспектив их применения в процессах очистки газовых и жидких сред. Целью исследования является изучение функциональных свойств как одной из важнейших физико-химических характеристик сорбентных материалов с высокими адсорбционными свойствами, полученных на основе местных биомассовых отходов в качестве импортозамещающих материалов.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Paulownia tomentosa, активированный углерод, функциональные группы, инфракрасная спектроскопия, FTIR, гидроксильная группа, карбоксильная группа, карбонильная группа, сорбент, химия поверхности.

Abstract: This study investigates the functional properties of activated carbon sorbents derived from Paulownia tomentosa wood waste using Fourier Transform Infrared Spectroscopy (FTIR). Activated carbon sorbents were produced from Paulownia wood residues by both conventional and non-conventional activation methods, and their surface chemical nature as well as functional group composition were examined. FTIR analysis was employed to evaluate the physicochemical characteristics of highly efficient activated carbon adsorbents obtained from Paulownia biomass waste. The results confirmed that the adsorbents possess a well-developed porous structure and a variety of functional groups serving as active adsorption sites. The FTIR spectra revealed the presence of hydroxyl (–OH), carboxyl (–COOH), carbonyl (C=O), ether (C–O–C), and aromatic functional groups on the sorbent surface. It was established that structural transformations occurring in the carbon matrix during activation, together with variations in the concentration of surface functional groups, significantly influence the sorption performance of the adsorbents. The obtained results demonstrate that the activation method and technological conditions directly affect the formation of functional centers on the sorbent surface. In particular, samples activated by microwave treatment exhibited a more developed system of oxygen-containing functional groups involved in sorption processes. The findings are of considerable scientific importance for evaluating the surface properties of carbon sorbents derived from Paulownia tomentosa waste, elucidating their sorption mechanisms, and substantiating their potential application in gas and liquid purification technologies. The aim of this research is to investigate the functional properties as one of the key physicochemical characteristics of highly adsorptive sorbent materials produced from local biomass waste as import-substituting products.

Keywords: Paulownia tomentosa, activated carbon, functional groups, infrared spectroscopy, FTIR, hydroxyl group, carboxyl group, carbonyl group, sorbent, surface chemistry.

KIRISH.

Bugungi kunda atmosfera havosi, tabiiy suv resurslari va sanoat chiqindilarining turli organik hamda noorganik moddalar bilan ifloslanishi yuqori samarali sorbsion materiallar yaratishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu munosabat bilan qayta tiklanuvchi o‘simlik xomashyolari asosida yuqori sorbsion xususiyatlarga ega bo‘lgan uglerodli adsorbentlar olish va ularning funksional

ISSN 3030-3907

xususiyatlarini tadqiq qilish sohasida keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning sorbsion xususiyatlarini yaxshilashda ularning sirt kimyoviy tabiati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Jumladan, mualliflar [1-4] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda faollashtirilgan uglerodlarning sorbsion xususiyatlari ko‘p jihatdan ularning sirtida mavjud bo‘lgan kislorod saqlovchi funksional guruhlar bilan belgilanishi ta’kidlangan. Shuningdek, [5-6] tadqiqotchi olimlar o‘z tadqiqotlarida gidroksil, karboksil va karbonil guruhlarining adsorbat molekulalari bilan o‘zaro ta’sirlashish mexanizmida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatganlar.

O‘simlik chiqindilari asosida olingan uglerodli sorbentlarning funksional xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha [7-10] mualliflarning tadqiqotlarida olib borilgan ishlarda turli biomassa manbalari asosida sintez qilingan adsorbentlarda kislorod saqlovchi funksional markazlar hosil bo‘lishi hamda ularning sorbsion jarayonlarga ta’siri o‘rganilgan. Mualliflar faollashtirish jarayoni sharoitlari funksional guruhlar tarkibi va miqdoriga bevosita ta’sir qilishini qayd etganlar.

Faollashtirilgan uglerodli materiallarning sirt xususiyatlarini o‘rganishda infraqizil spektroskopiya (FTIR) usuli eng samarali tahlil usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul yordamida adsorbent sirtida mavjud bo‘lgan gidroksil (–OH), karboksil (–COOH), karbonil (C=O), efir (C–O–C) va aromatik tuzilishlarga tegishli funksional guruhlarni identifikatsiya qilish mumkin. Shu sababli ko‘plab tadqiqotchilar sorbentlarning funksional xususiyatlarini baholashda aynan FTIR tahlil usulidan foydalanmoqdalar.

Pavlovniya Tomentoza daraxti yuqori o‘sish tezligi, biomassa hosil qilish qobiliyati va chiqindilarining ko‘pligi bilan ajralib turadi. Biroq mazkur xomashyo asosida olingan faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning funksional xususiyatlari va sirt kimyoviy tabiatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot ishining maqsadi Pavlovniya Tomentoza daraxti chiqindilari asosida olingan faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning funksional xususiyatlarini infraqizil spektroskopiya usuli yordamida tadqiq qilish, sirtda hosil bo‘lgan funksional guruhlarni aniqlash hamda ularning sorbsion xususiyatlarga ta’sirini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULI. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida keng miqyosda yetishtirilayotgan Pavlovniya daraxtining yog‘och chiqindilari tanlandi. Mazkur biomassa yuqori miqdordagi sellyuloza, gemisellyuloza va lignin saqlashi, tez tiklanuvchi resurs hisoblanishi hamda adsorbentlar olish uchun qulay uglerod manbai bo‘lishi bilan ajralib turadi.

ISSN 3030-3907

So‘nggi yillarda Pavlovniya biomassasi asosida tayyorlangan sorbentlar energiya saqlash qurilmalari, superkondensator elektrodlari, gaz sensorlari va funksional kompozit materiallar tarkibida ham qo‘llanilmoqda. Bu esa mazkur biomassa asosida olinadigan sorbentlarning amaliy ahamiyati va qo‘llanilish sohalarining kengayib borayotganligini ko‘rsatadi.



a) Piroliz usulida dastlabki ko‘mirlash jarayoni

b) suv bug‘ida faollashtirilgan 1-3 mm disperlik darajasidagi adsorbent

1-rasm. Xomashyodan adsorbent olishda ularni faollash usullari orqali olingan sorbsion material

Faollashtirilgandan keyingi mahslotning a) ko‘rinishida ko‘mirlashtirishdan keyingi holat va keyingi bosqichlarda ularni faollashtirish uchun 1-3 mm disperlikkacha maydalab, so‘ngra yuqori g‘ovaklik strukturasini shakllanishi uchun b) ko‘rinishdagi holatga keltirilgan. Bunda tadqiqotning keyingi bosqichlarida shu disperslik darajasini e’tiborga olgan holda amalga oshirilgan. An’anaviy faollashtirish texnologiyalarini qiyosiy baholash maqsadida tadqiqotlarda noan’anaviy yondashuv orqali piroliz jarayonidan so‘ng USni MTli nurlanish yordamida qayta faollashtirish usuli qo‘llanildi. Mazkur usulning texnologik sxemaci 1-rasmda berilgan bo‘lib, u uglerod asosli adsorbentlarni qisqa vaqt ichida yuqori darajada faollashtirish imkonini berish bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Daraxt chiqindilari asosida yuqori samarali adsorbentlar olishda qo‘llaniladigan texnologiyalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, adsorbentlarning asosiy xususiyatlari tanlangan faollashtirish usuliga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Bugungi kunda uglerodli adsorbentlar olishda fizikaviy, kimyoviy va noan’anaviy faollashtirish usullaridan keng foydalanilmoqda. Faollashtirib olingan sorbsion materiallarning xususiyatlari zamonaviy IQ-spektroskopiya orqali амалга оширилган, eksperimental tadqiqotlar сорбцион материалларнинг функционал хусусиятларини тадқиқ этиш имконияти орқали амалга оширилган.

ISSN 3030-3907

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Yuqori sorbsion xususiyatlarga ega adsorbentlarning samaradorligi birinchi navbatda ularning kolloid-kimyoviy xususiyatlari bilan belgilanadi. Adsorbentlarning solishtirma sirt maydoni, g‘ovaklik parametrlari, sirt energiyasi, funksional guruhlar tarkibi va adsorbat molekulalari bilan o‘zaro ta’sirlashish qobiliyati sorbsiya jarayonlarining borishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli yuqori g‘ovakli sorbsion materiallarning kolloid-kimyoviy xossalarini kompleks o‘rganish ularning amalda qo‘llanilish imkoniyatlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘simlik chiqindilari asosida olingan adsorbentlarda faollashtirish jarayoni ta’sirida yuqori darajada rivojlangan mikrog‘ovak va mezog‘ovak strukturalar shakllanadi. Mikrog‘ovaklar adsorbat molekulalarining sorbsiyasi uchun asosiy aktiv hajmni ta’minlasa, mezog‘ovaklar molekulalarning ichki struktura bo‘ylab harakatlanishini yengillashtirib, massa uzatish jarayonlarini jadallashtiradi. Natijada sorbsiya jarayonining tezligi va umumiy adsorbsiya sig‘imi ortadi.


Adsorbentlar sirtida hosil bo‘lgan funksional guruhlarning tabiati ham ularning kolloid-kimyoviy faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Faollashtirish jarayonlaridan keyin material sirtida gidroksil (–OH), karboksil (–COOH), karbonil (C=O), efir va fenolik guruhlarning shakllanishi kuzatiladi. Ushbu funksional markazlar gazsimon va suyuq muhitdagi adsorbat molekulalari bilan turli xil fizik va kimyoviy o‘zaro ta’sirlarni hosil qilib, sorbsiya jarayoni samaradorligini oshiradi [11-12].

Tadqiqotlar davomida an’anaviy suv bug‘i ishtirokida faollashtirilgan hamda noan’anaviy mikroto‘lqinli ta’sirlashuv asosida olingan adsorbentlar qiyosiy baholandi. Qiyosiy tahlil natijalari mikroto‘lqinli ta’sirlashuv natijasida hosil bo‘lgan materiallarda mikrog‘ovaklar ulushi yuqoriroq shakllanishini va adsorbsion faollikning oshishini ko‘rsatdi. Bu holat energiyaning material hajmi bo‘ylab bir tekis tarqalishi va uglerod strukturasining teng taqsimlangan holda faollashishi bilan izohlanadi.

Tomentoza daraxtining yog‘ochini suv bug‘i hamda MTli faollashtirish orqali olingan sorbsion materiallarni fizik kimyoviy xarakteraistikalarini tadqiqotiida IQ-spektrlarni tahlil etish undagi funksional guruhlarning mavjudligi va ularda boradigan adsorbsion jarayonlarning muhim ma’lumoti haqida xabar beradi. Suv bug‘i yordamida faollashtirilgan *Tomentoza* biomassasi asosida hosil qilingan uglerodli adsorbentning IQ-spektridagi 2-rasmda keltirilgan bo‘lib, namunaning sirt strukturasidagi funksional guruhlarning tabiati va ularning faol sorbsion markazlar sifatidagi rolini aniqlash imkonini beradi. Asosiy kuzatilgan cho‘qqilar quyidagicha tavsiflandi, ya’ni **~3420 sm^{-1}** atrofidagi kuchli va keng cho‘qqilarni kuzatilishi **-OH** guruhining valent tebranishlariga xos bo‘lib, bu

ISSN 3030-3907

adsorbent sirtidagi fenol, spirt va karboksil birikmalarining mavjudligini tasdiqlaydi. Bu guruhlar adsorbsion markazlar sifatida gaz molekulalarini, ayniqsa, H_2S va SO_2 ni yutishda muhim rol o‘ynaydi. Daraxt yog‘ochi asosida suv bug‘i bilan faollashtirilgan namunasining **~2920-2850 sm^{-1}** sohasidagi o‘rtacha intensivlikdagi kuzatilgan cho‘qqilar **-C-H** valent tebranishlariga tegishli bo‘lib, ular asosan alifatik uglevodorod zanjirlarining qoldiq qismlariga mansub hisoblandi [13-14]. Na’munaning **~1700-1720 sm^{-1}** dagi cho‘qqilarida **-C=O** bog‘ining tebranishlariga xos bo‘lgan adsorbent sirtidagi karboksil, lakton va keton funksional guruhlarining mavjudligini ko‘rsatdi. Faollashtirib olingan namunaning **~1610-1630 sm^{-1}** dagi cho‘qqilarlari **-C=C** aromatik bog‘lar tebranishlari bilan bog‘liq bo‘lib, faollantirish jarayonida hosil bo‘lgan grafitsimon uglerod strukturasini ifoda etadi, shuningdek **~1100-1200 sm^{-1}** atrofidagi kuzatilgan cho‘qqilar **–C-O-C** va **C-O** tebranishlariga tegishli bo‘lib, efir yoki spirtsimon birikmalarning mavjudligini hamda **~870-620 sm^{-1}** sohasidagi past chastotali cho‘qqilar esa aromatik halqalarning deformatsion tebranishlari bilan izohlanadi. Bu esa strukturadagi uglerod tuzilishining tartibliligi va yuqori kondensatsiyalanganligini ko‘rsatadi, olingan natijalarga ko‘ra, faollashtirish jarayonida suv bug‘ining ta’siri sirtdagi oksidlangan funksional guruhlarning hosil bo‘lishiga olib kelgan. Natijada, adsorbentning sirtining qutbliligi va uning gaz molekulalarini, ayniqsa qutbli va zararli komponentlarni fizik-kimyoviy sorbsiya orqali yutish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin. Ikkinchi b) tasvirda keltirilgan ma’lumotlar asosida faollashtirilgan na’muna spektri **FTIR-ma’lumotlar bazasi** bilan avtomatik ravishda taqqoslandi. Spektrlarni o‘zaro solishtirish natijalariga ko‘ra, namunadagi asosiy cho‘qqi intensivliklari bir qator etalon moddalar bilan qisman moslikni namoyon etgan.



a) b)

2-rasm. Tomentoza daraxti yog‘ochini a) 800°C haroratda suv bug‘i ishtirokida faollashtirilgan adsorbent namunasi hamda b) adabiyotlar tahlili asosida bazaviy ma’lumotlar bilan solishtirilgan IQ-spektri.

Xususan, spektr elementlari politetraftoretilen (CAS № 9002-84-0), qizil organik pigment “Pigment Red-107”, aluminiy xlorgidrati hamda nikel(II) sianidi

ISSN 3030-3907

($Ni(CN)_2$) moddalari spektrlaridagi xarakterli bog‘lanish diapazonlari bilan muayyan darajada o‘xshashlikni ko‘rsatgan.

Namuna spektrlaridagi o‘xshash moslikning kuzatilishi avvalo, faol uglerod sirtidagi kislorodli, galogenli va qisman metall-kompleks tabiatli funksional guruhlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Bu holat, asosan, faol uglerodning sirtidagi kislorodli va galogenli bog‘lanishlarning mavjudligini ifoda etadi. Shu bilan birga, suv bug‘i bilan faollashtirilgan *Pavlovniya Tomentoza* adsorbentining spektrida yuqori intensivlikdagi -OH va C=O bog‘larining mavjudligi, hamda uglerodli strukturalarining aniq ifoda etilgani **PTFE va aluminiy xlorgidrat standartlaridan farqli holda,** uglerod-kislorod-vodorod tizimining tabiiy organik kelib chiqishini tasdiqlaydi.

XULOSA. Mazkur tadqiqotda Pavlovniya daraxti chiqindilari asosida yuqori sorbsion xossalarga ega bo‘lgan faollashtirilgan uglerodli adsorbentlar olishning ilmiy va texnologik asoslari ishlab chiqildi hamda ularning fizik-kimyoviy, xususiyatlaridan IK-spektr taxlili orqali uning funksional xarakteristikasi o‘rganildi.

Pavlovniya Tomentoza daraxti chiqindilari asosida olingan faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning funksional xususiyatlari infraqizil spektroskopiya usuli yordamida tadqiq qilinib, ularning sirt kimyoviy tabiati aniqlandi.

IK-spektrlar tahlili natijasida faollashtirilgan sorbentlar sirtida gidroksil (–OH), karbonil (C=O), efir (C–O–C) va aromatik tuzilmalarga tegishli funksional guruhlar mavjudligi aniqlandi. Mazkur funksional markazlar adsorbent sirtining kimyoviy faolligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ekanligi ko‘rsatildi.

Faollashtirish jarayoni davomida uglerod matritsasida aromatiklashish jarayonlari sodir bo‘lishi va kislorod saqlovchi funksional guruhlarning shakllanishi aniqlandi. Bu esa sorbentlarda rivojlangan sorbsion markazlar tizimi hosil bo‘lishini ta’minlagan. Olingan spektrlarni adabiyot ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida Pavlovniya chiqindilari asosida olingan sorbentlarning funksional xususiyatlari sanoatda qo‘llanilayotgan faollashtirilgan uglerod materiallari bilan muvofiqligi tasdiqlandi. Bu holat tanlangan faollashtirish sharoitlarining maqbulligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari funksional guruhlarning hosil bo‘lishi sorbentlarning sorbsion xususiyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Xususan, gidroksil, karbonil va efir tabiatli funksional markazlar adsorbat molekulalari bilan o‘zaro ta’sirlashish ehtimolini oshirib, sorbsiya jarayonining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslantirildi.

Shunday qilib, Pavlovniya Tomentoza chiqindilari asosida olingan faollashtirilgan uglerodli sorbentlar rivojlangan funksional markazlar tizimiga ega bo‘lib, ularni organik birikmalar, suv-spirtli muhitlar hamda turli gazsimon

ISSN 3030-3907

adsorbatlarni sorbsiya qilish jarayonlarida qo‘llash uchun istiqbolli material sifatida baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Marsh H., Rodríguez-Reinoso F. (2006). *Activated Carbon*. Amsterdam: Elsevier Science & Technology Books.
2. Ioannidou O., Zabaniotou A. (2007). Agricultural residues as precursors for activated carbon production – A review. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 11(9), 1966–2005.
3. Lua A.C., Yang T. (2004). Characteristics of activated carbons prepared from pistachio-nut shells by physical activation. *Journal of Colloid and Interface Science*, 274(2), 594–601.
4. Guo J., Lua A.C. (2000). Preparation of activated carbons from oil-palm-stone chars by microwave-induced carbon dioxide activation. *Carbon*, 38(14), 1985–1993.
5. Mohan D., Pittman C.U. (2006). Activated carbons and low-cost adsorbents for remediation of tri- and hexavalent chromium from water. *Journal of Hazardous Materials*, 137(2), 762–811.
6. Yakout S.M., Elsherif E. (2010). Carbon—science and technology. *Adsorption characteristics of activated carbon prepared from rice straw*. *Journal of Chemical Technology and Biotechnology*, 85, 128–135.
7. Foo K.Y., Hameed B.H. (2012). Preparation, characterization and evaluation of adsorptive properties of orange peel based activated carbon. *Journal of Hazardous Materials*, 173(1–3), 385–394.
8. Bansal R.C., Goyal M. (2005). *Activated Carbon Adsorption*. Boca Raton: CRC Press.
9. Demiral H., Demiral İ. (2011). Surface properties of activated carbon prepared from olive bagasse by chemical activation. *Surface and Interface Analysis*, 43(10), 1349–1354.
10. Rosas J.M., Bedia J., Rodríguez-Mirasol J., Cordero T. (2009). HEMP-derived activated carbon fibers by chemical activation with phosphoric acid. *Fuel*, 88(1), 19–26.
11. Рахимов У.Ю., Жумаева Д.Ж., Барноева С.Б, Эшметов И.Д. Узум данаги чиқиндиси асосида фаоллаштирилган адсорбентларда ИҚ-спектр таҳлили. “Кимё ва кимё таълими муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллар тўплами. 2022 йил 20 сентябрь. Қўқон – 2022. 329-331 бетлар.
12. Жумаева Д.Ж., Шамуратова М.Р., Рахматуллаева Н.Т., Абдурахимов А.Х., Эргашев О.К. Павловния дарахт ёғочи чиқиндиларини фаоллаштириш усуллари. Наманган муҳандислик-қурилиш институти. Механика ва

ISSN 3030-3907

технология илмий журнали. №3 (3), 2022. Махсус сон. Наманган-2022. 289-294 б.
13. Охунжонов З.Н., Аҳророва Р.О., Нўмонова З.Т., Рахимов У.Ю. Жумаева Д.Ж. Тоғ машиналари шинаси асосидаги сажа ёрдамида гранулалаштирилган адсорбент. Наманган муҳандислик-қурилиш институти. Механика ва технология илмий журнали. №3 (3), 2022. Махсус сон. Наманган-2022. 294-299 б.
14. Рахматуллаева Н.Т., Фузайлова Ф.Н., Абдурахимов А.Х., Жумаева Д.Ж. Исследование макро- и микроэлементов деревьев при получении адсорбентов. “Кимё ва кимё таълими муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман материаллар тўплами. 2022 йил 20 сентябрь. Қўқон – 2022. 331-333 б.

ISSN 3030-3907

PAVLOVNIYA TOMENTOZA XOMASHYO CHIQINDILARI ASOSIDA FAOLLASHTIRILGAN UGLERODLI SORBENTLARNING STRUKTURAVIY VA MIKROTUZILISH XUSUSIYATLARI

Jumayeva D.J.
O‘zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti
Axrorova R.O.
O‘zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti
Barnoyeva S.B.
O‘zRFA Umumiy va noorganik kimyo instituti
Abduraximov A.X
Toshkent kimyo-texnolgiya instituti
Hamroqulova K.H.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda Pavlovniya Tomentoza daraxti chiqindilari asosida olingan faollashtirilgan uglerodli sorbentlarning strukturasi, element tarkibi va morfologik xususiyatlari kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi faollashtirish jarayonlari natijasida shakllangan uglerodli matritsaning morfologiyasi va element tarkibini baholash hamda ularning sorbsion xususiyatlarga ta’sirini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Sorbent namunalari Pavlovniya Tomentoza yog‘och chiqindilarini karbonlashtirish va keyingi faollashtirish orqali olindi. Na’munalarning element tarkibi energiya-dispersion rentgen spektroskopiyasi (EDS), morfologik xususiyatlari esa transmission elektron mikroskopiya (TEM) usullari yordamida tadqiq qilindi. EDS tahlillari natijasida sorbent tarkibida uglerodning yuqori ulushi (94–96 at.%) saqlanib qolganligi aniqlandi, bu esa biomassaning yuqori darajada karbonlashganligini tasdiqladi. Shu bilan birga kislorod hamda Mg, Al, Si, K, Ca va Fe kabi mineral elementlarning kam miqdorlarda mavjudligi qayd etildi. TEM tahlillari natijalari faollashtirish jarayoni davomida yuqori dispersli amorf uglerodli matritsa, qatlamsimon uglerodli fragmentlar va nanomiqyosdagi agregatlar shakllanganligini ko‘rsatdi. Morfologik tadqiqotlar uglerodli strukturada nano va submikron darajada rivojlangan tuzilish mavjudligini hamda faollashtirish jarayonining uglerod matritsasi qayta tashkillanishiga olib kelishini tasdiqladi. Element tarkibi va morfologik tahlil natijalarining o‘zaro muvofiqligi sorbentlarda yuqori uglerodli, rivojlangan va barqaror struktura shakllanganligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar Pavlovniya Tomentoza chiqindilari yuqori sorbsion xususiyatlarga ega bo‘lgan uglerodli materiallar sintezi uchun istiqbolli xomashyo ekanligini tasdiqladi. Aniqlangan morfologik va strukturaviy xususiyatlar mazkur sorbentlarni suv va gaz muhitlarini tozalash, organik ifloslantiruvchilarni sorbsiya qilish hamda ekologik texnologiyalarda qo‘llash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

Kalit so‘zlar: Pavlovniya Tomentoza, faollashtirilgan uglerodli sorbent, TEM, EDS, morfologiya, element tarkibi, karbonlashish, uglerod matritsasi, sorbsion materiallar.

Аннотация. В данном исследовании проведено комплексное изучение структуры, элементного состава и морфологических характеристик активированных углеродных сорбентов, полученных на основе отходов древесины павловнии войлочной (*Paulownia tomentosa*). Основной целью работы являлась оценка морфологии и элементного состава углеродной матрицы, сформированной в процессе активации, а также определение их влияния на сорбционные свойства материала. Образцы сорбентов были получены путем карбонизации отходов древесины *Paulownia tomentosa* с последующей активацией. Элементный состав образцов исследовали методом энергодисперсионной рентгеновской спектроскопии (EDS), а морфологические особенности — методом просвечивающей электронной микроскопии (TEM). Результаты EDS-анализа показали, что в составе сорбентов сохраняется высокая доля углерода (94–96 ат.%), что подтверждает высокую степень карбонизации биомассы. Одновременно были выявлены небольшие количества кислорода, а также минеральных элементов Mg, Al, Si, K, Ca и Fe. Результаты TEM-исследований показали, что в процессе активации формируются высокодисперсная аморфная углеродная матрица, слоистые углеродные фрагменты и наноразмерные агрегаты. Морфологический анализ подтвердил наличие развитой структуры на нано- и субмикронном уровнях, а также свидетельствовал о существенной реорганизации углеродной матрицы в ходе активации. Согласованность результатов элементного и морфологического анализа указывает на формирование сорбентов с высоким содержанием углерода, развитой пористой структурой и высокой стабильностью. Полученные результаты подтверждают, что отходы древесины *Paulownia tomentosa* являются перспективным сырьем для синтеза углеродных материалов с высокими сорбционными характеристиками. Выявленные морфологические и структурные особенности служат научной основой для применения данных сорбентов при очистке водных и газовых сред, извлечении органических загрязнителей и разработке экологических технологий.

Ключевые слова: *Paulownia tomentosa*, активированный углеродный сорбент, TEM, EDS, морфология, элементный состав, карбонизация, углеродная матрица, сорбционные материалы.

Abstract. This study presents a comprehensive investigation of the structure, elemental composition, and morphological characteristics of activated carbon sorbents produced from *Paulownia tomentosa* wood waste. The main objective was

ISSN 3030-3907

